2025 | № 3

Uzbekistan's club

MAGAZINE



UZBEKISTAN:
LAND OF TALENTS


TOP 7
O'ZBEKISTONLIK INFLYUENSERLAR

ABDUQODIR HUSANOV
MEHNAT VA NATIJA

WWW.UZBEKISTANS.CLUB


KAPITAL
Premium











MUNDARIJA

ABDUQODIR HUSANOV 6
MEHNAT VA NATIJA

UZBEKISTAN: 12
LAND OF TALENTS

OYBEK QOSIMOV
QO'LLOV + YAXSHI
SELEKSIYA = MUVAFFAQIYAT 20

YULDUZ RAJABOVA 26
HAYOTIMDAN ROZIMAN

TIMOTI SMART 36
EL UMID ILA O'ZAR

SHUHRAT XUDOYQULOV 42
ORZULAR PARVOZI

ZAFAR HOSHIMOV 50
TADBIRKOR BU — STRATEG

IZZAT SHUKUROV 56
KELAJAK SARI PILLAPOYA

OTABEK HASANOV 64
BIZ MIJOZLARIMIZNI
TINGLAYMIZ

ADIZ RAJABOV 70
BU MAS'ULIYAT PALLASI

DORA OTAJONOVA
AYOL NIGOHI: O'ZBEKISTON
AGRO SOHASIDAGI
ISLOHOTLARGA NAZAR 78

SHAXRIYOR
DUNYO QOZONIDA
PISHGAN PALOVMAN... 86

UMID GAFUROV
YOLG'ONNI KECHIRMAYDIGAN
PERFEKSIONIST 94

TOP 7 O'ZBEKISTONLIK 100
INFLYUENSERLAR

SAIDAZIZ A'ZAMOV 116
QURBON O'LAM

ERIK SEYLER
OLIY DARAJADAGI 122
MEHMONDO'STLIK

MOHIRA MULLAJONOVANING 126
BESH PORTRETI

BIZ 134
HAQIMIZDA

Uzbekistan's
MAGAZINE club

TA'SISCHI:
"Uzbekistan's club" xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti
Jurnal 2023-yil 13-oktabrda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 145215 raqam bilan ro'yxatga olingan. ISSN tartib raqami: 3060-4680.

TAHRIR HAY'ATI:
OYBEK ABDUSHUKUROV
MUXLISA AZIZOVA

G'oya muallifi va badiiy rahbar: **MUXLISA AZIZOVA**
Bosh muharrir: **TINA IMAMJAN**
Prodyuserlar: **OYBEK ABDUSHUKUROV, NIKITA MAKARENKO**
Art-direktor: **RUSTAM MELIEV**
Muharrir: **SAIDAZIZ A'ZAMOV**
Fotograf va dizayner: **RUSTAM MELIEV**
Ijrochi prodyuser: **ASQAR TOG'AYEV**
Liboslar bo'yicha rassom: **SOJIDA HASANOVA**
Dekoratsiya bo'yicha rassom: **ISOBEK EGAMBERDIYEV**
Public relations: **ABROR ISMAILOV, SEVARA RAHMANOVA, AZIZ MIRZAKARIMOV**
Sahifalovchi dizayner: **RAHMATJON YUNUSOV**
Korrektor: **IRODA NASIMOVA**
Fotografiyalar bo'yicha assistent: **AXILTAY ABETOV**
Gaffer: **TALGAT GIMRANOV**
Stilist: **ABBOS MURATOV**
Grim ustasi: **GALINA IVANOVA**
Vizajist: **ZILOLA SOBIROVA**
Dekoratorlar: **NUSRAT SHOKIROV, KAMOLIDDIN XUSHVAQTOV**
Tarjimonlar: **SAODAT ABDURAHMONOVA, MUNISA A'ZAMOVA**
Buxgalter: **NIGORA MELIEVA**
Administrator: **IBROHIM AZIMOV**

MUALLIFLAR:
NIKITA MAKARENKO, TINA IMAMJAN, SAIDAZIZ A'ZAMOV, IRODA NASIMOVA, SAODAT ABDURAHMONOVA, TILLANISO NURYOG'DI, MURAD NASIROV, AZAMAT MURODOV

HAMKORLIK BO'YICHA MUROJAAT QILISH UCHUN:
+998-91-019-00-80, magazine@uzbekistans.club

Jurnal sahifalaridagi modaga uyg'un obrazlar GLAMOUR AVENUE va PODIUM DEPARTMENT STORE multibrend butiklarining konsultantlari Shahruz Nahmedov va Eldar Neftaliyev ko'magi bilan yaratildi.
Suratga olishda hamkorlik qilgani uchun Design49 dizaynerlik mebel va aksessuarlari saloni va Igor Lipkinga minnatdorlik bildiramiz.
Uzbekistan's club – millat uchun eng dolzarb va qiziqarli mavzular yoritiladigan, iste'dodli mualliflarning ijod namunalari chop etiladigan, dunyodagi barcha o'zbekistonliklar uchun mo'ljallangan tahliliy, ma'rifiy-ko'ngilochar jurnal. Unda e'lon qilinayotgan maqolalarda keltirilgan fikrlar muallifga tegishli va ular Uzbekistan's club jurnali nuqtayi nazarini ifoda etmasligi mumkin. Jurnal sahifalaridan olingan iqtibos va mualliflik matn fragmentlarini ommaviy axborot vositalari, xususan, internetda qayta e'lon qilishda manba Uzbekistan's club jurnali deb ko'rsatilishi lozim. Adadi: 10000 nusxa. "JURABEK PRINT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yangiobod posyolkasi, Katta-su ko'chasi.

SALOM, QADRLI O'QUVCHI!

Jurnalimizning ushbu 3-soni biz uchun quvonchli bir paytda nashrdan chiqmoqda. 2025-yilning iyun oyidan jamoamiz ***Uzbekistan: Land of Talents*** global promoushn kampaniyasini ishga tushirmoqda. Ushbu kampaniya uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lib, O'zbekiston uchun yangi, mamlakatning zamon hamda global jarayonlardagi pozitsiyasiga mos brendini shakllantirishni maqsad qilgan.

Avvalo, ushbu messejni biz o'zbek tilida, o'z jamiyatimiz, o'z iste'dodlarimiz, o'z-o'zimizga yetkazishimiz kerak. Biz buni O'zbekistonning eng muvaffaqiyatli shaxslari, muzaffar o'zbekistonliklar hikoyalari va ekspertlik fikrlarini tarqatish orqali amalga oshiramiz. Nazarimizda, videokontent va xalqaro forumlarimiz qatorida Uzbekistan's club jurnalining missiyasi ham aynan shu – eng ilg'or o'zbekistonliklarning g'oyalari, qadriyatlari, inja fikrlari jamuljam bo'ladigan maydon yaratish.

Uzbekistan: Land of Talents global kampaniyasini boshlashimizga O'zbekiston futbol assotsiatsiyasining tashabbusi sabab bo'ldi. Kampaniyaga futbol bo'yicha milliy terma jamoamizning mundialga intilishi bilan bog'liq sa'y-harakatlarimiz start bermoqda. Sababi yurtimizda va xorijda targ'ib qilayotganimiz iste'dodli o'zbekistonliklar orasida sportchilarimiz, xususan, xalqimizning 34 yillik orzusini ro'yobga chiqarish uchun intilayotgan MTJ a'zolari o'z o'rniga ega.

Qo'lingizda tutib turganingiz jurnal bizning barcha intilish va maqsadlarimiz in'ikosidir. Uni varaqlar ekansiz, o'zbekistonliklar barcha ishni uddalashiga, jamiyatimiz salohiyati naqadar baland ekaniga yana bir bor amin bo'lasiz.

An'anaga ko'ra, har bir sonimiz yaxlit vizual konsepsiyaga asoslanadi. Birinchi sonimizda metaforalar, ikkinchisida esa dunyoning mashhur san'at asarlariga urg'u bergan edik. Bu safar jurnal qahramonlarini mashhur filmlar obrazida gavdalantirdik.

Sezganingizdek, uning muqovasini eng mashhur o'zbekistonliklardan biri Abduqodir Husanov bezadi. Olamshumul zafar quchayotgan futbolchimizni "Taxtlar o'yini" serialidagi Jon Snou qiyofasida taqdim etayotganimizda ramziy ma'no bor: u kuchli, kamtar, jangovar va ishonchli. Uning yutuqlari – nafaqat sportchining, balki butun O'zbekiston futbolining g'alabasidir.

Toping-chi, jurnaldagi boshqa obrazlar qaysi filmlardan? Keyingi sahifalar bo'ylab qiladigan sayohatingiz maroqli bo'lishini tilaymiz!



Yaqin vaqtgacha Parijda, Istanbulda yoki Dubayda taksiga o‘tirib, “O‘zbekistondanman” desak, haydovchi jilmayib, bosh irg‘ab qo‘yardi. Endi esa ularning ko‘pchiligi hayrat bilan bir xil savol beradi: “Uzbekistan? Khusanov?”

Har bir mamlakatning kuchli tomoni bor. Har kim o‘z ustunligini topib, global raqobat maydonida munosib o‘rnini egallashi zarur. O‘zbekiston uchun shunday raqobatbardosh jihat – inson kapitali, ya’ni mamlakatning iste’dodli, mehnatkash va kurashuvchan odamlari.

21 yoshli Abduqodir Husanov bunga eng yorqin misollardan biri. Ehtimol, u dunyodagi eng taniqli o‘zbekistonlik. Qaysi soha vakili bo‘lmasin, nima ish bilan shug‘ullanmasin, o‘zbekistonliklar Husanovga havas qilmoqda. U – motivatsiya manbayi.

MEHNAT VA NATIJA

Matn:
Saidaziz A’ZAMOV



BOLALIK VA OILAVIY MUHIT

Biografiyalarda muvaffaqiyatli insonlar sinfdan tashqarida nima bilan shug‘ullangani haqida albatta o‘qiysiz. Chunki aynan shu pallalar shaxs shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Olti yoshidayoq kelajakda futbolchi bo‘lishga qat’iy qaror qilgan Abduqodir maktabga kirgach, “Bunyodkor” futbol akademiyasiga bora boshlaydi. Mashg‘ulotlardan bo‘sh vaqtida esa futbol tomosha qilish uchun stadionga borishni kanda qilmaydi. Professional futbolchi bo‘lmish otasi Hakimjon Hoshimovning o‘yinlarini ko‘rgani. Ha-ya, otasidan qancha faxrlanmasin, unga “Men Hoshimovning o‘g‘liman” deb aytmaslik uqtiriladi. Toki Abduqodirga uning otasiga qarab muomalada bo‘lishmasin! Shuning uchun yigitchani akademiyaga olib borib kelishni ham amakisi Rahmatjon Hoshimov o‘z zimmasiga oladi.

Husanov maktabni bitirgungacha “Bunyodkor”ga qatnaydi. Murabbiylari undagi tug‘ma iste’dodni payqaydi. Uchqirligi bilan ajralib turgan Abduqodir o‘zidan ikki yosh kattaroq bolalar bilan bir jamoada o‘ynab, mashq qiladi.

20 YOSHGACHA

2022-yil vaziyat taqozosi bilan Abduqodirga “Bunyodkor” klubi asosiy tarkibida o‘ynash uchun “tortmasligi”ni aytishadi. U esa Belarusga, “Energetik BGU” klubida o‘ynash uchun ketadi. 18 yoshli yigit xorijda turli sharoitlarda yashaydi. Mashg‘ulotlar hamda o‘yinlarda chiniqadi. 2022-yil 2-may kuni – “Energetik”ka qo‘shilganidan ikki oy o‘tar-o‘tmas – Neman Grodno jamoasiga qarshi o‘yinda u o‘zining birinchi golini uradi, qo‘shimchasiga yana ikki golli uzatmani amalga oshiradi. Shu yili u Belarus chempionatining ramziy jamoasiga kiritiladi.

2023-yil O‘zbekistonning U-20 terma jamoasi safida o‘ynaydi. Ushbu jamoa Osiyo chempionatida g‘oliblikni qo‘lga kiritadi. Keyinchalik yigirma yoshgacha bo‘lgan futbolchilarimiz Argentinada jahon chempionatiga yo‘l oladi. Garchi nimchorak finaldagi mag‘lubiyat bilan cheklangan bo‘lsa-da, terma jamoamiz dunyoning yirik skautlari va mutaxassislar e’tiboriga tushadi. Futbolchilar ichida 19 yosh bo‘lishiga qaramay, 25 yoshdek ko‘rinadigan, baquvvat o‘zbek o‘g‘loni Abduqodir Husanov ham bor edi. Unga Yevropaning top ligalari, xususan, Fransiyaning “Lans” klubi og‘iz sola boshlaydi.

RAD JAVOBI • YENGILMASLIK
BELARUS • ENERGETIK BGU
U-20 • OSIYO CHEMPIONI
ARGENTINA • FIFA U-20 WORLD CUP



UMUMIY KO‘RINISH
TOM FORD

LANS

2023-yil yozida Abduqodir Husanov Fransiyaning kuchli klublaridan biri – “Lans” bilan to‘rt yillik shartnoma imzolaydi. Bu transfer orqali u Ligue 1 tarixida to‘p surgan ilk o‘zbekistonlik futbolchiga aylanadi. O‘sha yilning 29-noyabr kuni UEFA Chempionlar Ligasi doirasida “Arsenal”ga qarshi maydonga tushadi va shu tariqa turnir tarixida o‘ynagan eng yosh o‘zbekistonlik futbolchiga aylanadi.

Uning “Lans”dagi eng yorqin lahzalaridan biri 2024-yil, Fransiya kubogi doirasidagi o‘yinda kimsan ”Pari Sen-Jermen”ga gol urganida yuz beradi. O‘yin davomida burchak zarbasidan keyin Abduqodir himoyachilar orasidan sakrab, kuchli zarba bilan darvozani ishg‘ol qiladi. Shunda u qo‘lini chakkasiga tirab, o‘z golini nishonlaydi. Intizom, iroda va qat’iyat ramzi bo‘lgan bu harakat nafaqat muxlislar, balki jamoa ichidagi futbolchilar va murabbiylar tomonidan ham olqish bilan kutib olinadi.

Parij-2024 o‘yinlari doirasidagi O‘zbekiston olimpiya terma jamoasi o‘yinlarini ko‘rish uchun stadionga kelgan fransuzlar biznikilarga muxlislik qiladi. Nima uchun? Albatta, Husanov sababli. Axir, u fransuz nashrlariga ko‘ra, haftaning ramziy jamoasiga kirgan, hatto markaziy himoyachi sifatida mavsumning Ligue 1 jamoasidan joy olgan edi.

MANCHESTER SITI

2025-yil 20-yanvarda Husanov Angliyaning “Manchester Siti” klubi bilan to‘rt yarim yillik shartnoma imzoladi. Bu transfer 40 million yevroga baholandi va u Premyer Ligada o‘ynagan birinchi o‘zbekistonlik futbolchiga aylandi. 2025-yil 25-yanvarda “Chelsi”ga qarshi o‘yinda debyut qildi. Dastlabki daqiqalarda xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa-da, o‘yinning qolgan qismida o‘zini tiklab, yaxshi o‘yin ko‘rsatdi. 2025-yil 8-fevralda “Leyton Orient”ga qarshi o‘yinda o‘zining birinchi golini urdi. Husanovning tezligi va himoyadagi ishonchli o‘yini uni “Manchester Siti” muxlislari orasida mashhur qildi.

Mutaxassislarning fikricha, Abduqodir fenomeni o‘zbek futboliga yangicha impuls berdi. Husanov “Man Siti”ga o‘tishi arafasida boshqa futbolchilarimiz ham ketma-ket yaxshi natijalarni qayd eta boshladi. 17 yoshgacha bo‘lgan O‘zbekiston o‘smirlar futbol terma jamoasi Osiyo chempionligini qo‘lga kiritdi. Ha-ya, o‘zbekistonliklar orasida futbol ixlosmandlari ham ko‘paydi va faollashdi. Muxlislik hamda qo‘llab-quvvatlash qarzi ham muhim. Husanov aytganidek, “sizlar bilan osonroq bo‘ladi”.

Qahramonimiz orzu qilganidek, bu tendensiya davom etar ekan, hali ko‘p o‘zbekistonliklar dunyo futboliga yangi qon bo‘lib qo‘shilishini kuzatamiz.

LANS • LIGUE 1 • UEFA • PARIS 2024
MANCHESTER SITI • PREMIER LEAGUE
QOBILIYATNI ERTA ANIQLASH
INTIZOM • KAMTARLIK
OTA – KUCHLI ROL MODEL



uzum | KAPITALBANK | Ucell | 5-10-IYUN | TOSHKENT SHAHAR HOKIMLIGI | 2025

2025-yil. Uzbekistan’s club loyihalari boshlanganiga to‘rt yil to‘lishi munosabati bilan jamoamiz O‘zbekiston uchun keng qamrovli, uzoq muddatli global promoushn kampaniyani ishga tushirishga qaror qildi. Ushbu tashabbusga “Uzbekistan: Land of Talents”, ya’ni “O‘zbekiston – iste’dodlar zamini” nomi berildi.



UZBEKISTAN
LAND OF TALENTS

WORLD CUP 2026

O‘zbekistonning yangi brendini shakllantirish bu avvalo, xalqimizni o‘zining shu maqomga munosib ekaniga ishontirish, so‘ng esa butun dunyoga salohiyatimizni tarannum etishdir. Bu ulkan va mas’uliyatli vazifa. Uni bir jamoa yoki yagona tashkilotning o‘zi amalga oshira olmaydi. Buning uchun ko‘plab mutaxassislar, turli tashkilot va kompaniyalar mushtarak maqsad yo‘lida birlashishi zarur.

Uzbekistan’s club ana shunday sinergiyaga sabab bo‘lish uchun kreativlikka va mediaga e’tibor qaratdi. Ta’sirchan va yuqori sifatli loyihalarimiz orqali g‘oyamizga xayrixoh bo‘lgan vatandoshlarni atrofimizda jamladik.

Endi navbat ko‘lam va samaradorlik bo‘yicha keyingi bosqichga! *Uzbekistan: Land of Talents* – o‘zbekistonliklarning salohiyati nihoyatda yuksak ekani, har sohada o‘zimizning iste’dodlar jahon toifasidagi mutaxassislarga aylana olishini targ‘ib qiluvchi kampaniya. O‘zbekistondagi jamiki sohalarda, moliyadan texnologiyagacha, tibbiyotdan ta’lim va ilm-fangacha, taraqqiyot drayveri inson kapitalidir.

Uzbekistan: Land of Talents futbolchilarimizni qo‘llab-quvvatlash bilan start olmoqda. O‘zbekiston milliy terma jamoasining mundial sari intilishi davrida biz ularni rag‘batlantiradigan, xalqimizga shu orqali ko‘tarinkilik beradigan loyihalarni boshlab yubordik.

Global promoushn kampaniyani amalga oshirishda bosh hamkor Kapitalbank ATB hisoblanadi. Shuningdek, Uzum hamda Ucell kompaniyalari ham boshlangan sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlamoqda. Biz “Terma jamoa do‘stlari” deb atayotgan homiylar, ularning loyihaga qo‘shayotgan hissalari va motivlari haqida keyingi sahifalarda o‘qiysiz.

AXBOROT HAMKORLARIMIZ

UFA | Uzbekistan’s Club | ZOR TV | KUN.UZ | gazeta.uz | DARYO | ALAMPIR | REPOST | championat asia | UzNews



KUZATUV KENGASHI RAISI

MAKSUD ABDUSAMADOV

KAPITALBANK

YOSHLARNI RAG‘BATLANTIRISH SALOHIYATGA SARMOYA MAMLAKAT KELAJAGI

“Mamlakatimizning iste’dodli yoshlarini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash “Kapitalbank” faoliyatidagi ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Biz ijtimoiy loyihalarda faol ishtirok etamiz, ta’lim tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaymiz hamda havaskor va professional sportning rivojlanishiga hissa qo‘shamiz.

Hozirgi kunda Kapitalbank O‘zbekistondagi eng yirik ish beruvchilardan biri, shuningdek, “Top Employer” nufuzli xalqaro sertifikatini qo‘lga kiritgan ilk milliy kompaniya sanaladi.

So‘nggi ikki yilda Kapitalbank 1000 dan ziyod yangi ish o‘rni yaratgan bo‘lib, bunda xodimlarni o‘qitish va malakasini oshirish hamda yoshlar bilan ishlash ko‘zda tutilgan.

Futbol haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, Milliy terma jamoamizga yuksak faxr va umid bilan qaraymiz. U o‘z salohiyatini ishonch bilan namoyish qilib, g‘alaba sari odimlamoqda.

Uzbekistan Land of Talents muhim harakat bo‘lib, nafaqat sport tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, balki yoshlarning iqtidorini yuzaga chiqaruvchi platforma yaratishni ham maqsad qiladi.

Loyihada Kapitalbank’ning bosh hamkor va tadbir tashkilotchilaridan biri sifatida qatnashishi tasodif emas.

Bu nafaqat metsenatlik qo‘llovi, balki yoshlar o‘z salohiyatini namoyon eta oladigan sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga intilishimizning ifodasidir.

Yirik kompaniyalar bunday loyihalarni rivojlantirishga munosib hissa qo‘sha oladi, Kapitalbank bu muhim voqeaga daxldorligidan g‘ururlanadi. Biz yoshlarga imkoniyatlar doirasini kengaytirish va yangi cho‘qqilarni zabt etishda ko‘mak beradigan g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlashda davom etamiz. Aynan shu kabi tashabbuslar rivojlanish va o‘sish uchun zamin yaratib, mamlakat kelajagiga poydevor o‘laroq xizmat qilishiga ishonamiz!”



DJASUR DJUMAYEV
CEO VA ASOSCHI

uzum

IQTIDOR, G‘AYRAT VA ISHTIYOQ MILLIY TERMA, MILLIY G‘URUR HAR BIR YOSH — MOZAIKA BO‘LAGI

“Biz butun mamlakat bilan birgalikda o‘zbekistonliklarning yutuqlari bilan faxrlanamiz va yurtimizni butun dunyoga tanitish orqali uning faol rivojlanishiga o‘z hissamizni qo‘shishga intilamiz. Men uchun O‘zbekiston iste’dodli insonlar mamlakati, o‘zim ulg‘aygan va cheksiz ishonch bildiradigan diyor.

Biz iqtisodiyot, sport, fan va texnologiyalar rivojlanishida misli ko‘rilmagan yutuqlarga erishdik. Bu yutuqlarning har biri ortida iste’dodli, shijoatli, ijodkor insonlar va, albatta, aql bovar qilmaydigan mehnat turadi. So‘nggi bir necha yil ichida mamlakatimizda birinchi milliy IT-yakkashox paydo bo‘ldi, sportchilarimiz eng nufuzli xalqaro musobaqalarda medallarni qo‘lga kiritdi, o‘zbekistonlik talabalar dunyoning yetakchi universitetlari stipendiatlari bo‘lmoqda. Bugun biz uchun nafaqat iste’dodlarni izlash, balki ularning o‘z yurtimizda namoyon bo‘lishi uchun sharoit yaratish har qachongidan ham muhimdir.

Uzbekistan: Land of Talents loyihasi yoshlarimizning salohiyatiga ishonch, avlodlar, sohalar va hududlar o‘rtasida ko‘prik yaratish haqida. Bu falsafa Uzumning qadriyatlariga uyg‘un: biz o‘zimiz shu yerda voyaga yetdik, butun mamlakat bo‘ylab minglab odamlardan iborat jamoani to‘pladik va O‘zbekistonga ishonganlar bilan birga o‘sishda davom etmoqdamiz.

Biz bu loyihani nima uchun qo‘llab-quvvatlaymiz? Chunki bunday tashabbuslar texnologiyalarni rivojlantirish uchun qulay ekotizim shakllanishiga turtki bo‘ladi. Shuningdek, bu tashabbus madaniy, intellektual va insonparvar muhitni yaratadi, unda yashaging, ishlaging va yaratging keladi”.

Ucell

NOYOB KADRLARNI KASHF ETISH

Ucell uchun *Uzbekistan: Land of Talents* dasturida ishtirok etish – iste'dodlar kashf etilgan, insonlar katta maqsadlarga erishadigan mamlakatga – kelajakka sarmoyadir.

Ishonchimiz komilki, O'zbekistonning salohiyati, avvalambor, uning odamlarida: ishtiyoqi baland, bunyodkor va shijoatli xalqidadir.


Ular yangi, raqamli davrni shakllantiradi. Bizning telekommunikatsiya yetakchisi sifatidagi vazifamiz esa ularni qo'llab-quvvatlash, imkoniyatlarini kengaytirish, bog'lash va ilhomlantirishdir.

BIZNING MAQSADIMIZ — ISTE'DODLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH! ZERO, U QADRLANADIGAN JOYDA TARAQQIYOT, SAMARADORLIK, TEZKORLIK VA SIFAT MAVJUD.



ANDREY SHISHKOVSKIY
BOSH DIREKTOR

SPORT



QO'LLOV

+ YAXSHI SELEKSIYA

= MUVAFFAQIYAT

GLAMOUR AVENUE | PODIUM

2024-YIL O‘ZBEK SPORTI UCHUN UNUTILMAS TARIXIY NATIJALARGA BOY BO‘LDI. PARIJ OLIMPIADA O‘YINLARIDA O‘ZBEKISTON SPORT DELEGATSIYASI O‘Z TARIXIDAGI ENG YAXSHI NATIJANI KO‘RSATIB, UMUMJAMOA HISOBIDA DUNYO REYTINGIDA 13-O‘RINNI EGALLADI.

SHUBHASIZ, BUNDAY NATIJADA MAMLAKATDAGI SPORT INFRATUZILMASI, YARATILGAN SHAROITLARNING YETARLICHA HISSASI BOR. O‘ZBEKISTON SPORTINING BUGUNI VA ERTASI HAQIDA FIKRLASHISH MAQSADIDA MILLIY OLIMPIYA QO‘MITASI BOSH KOTIBI OYBEK QOSIMOVNI SUHBATGA TORTDIK.

– PARIJ-2024 YOZGI OLIMPIYA O‘YINLARI BO‘YICHA QANDAY XULOSALAR QILDINGIZ?

– Bu musobaqa mamlakat tarixidagi unutilmas voqelik bo‘ldi. 206 mamlakatning eng sara atletlari qatnashgan murosasiz bellashuvlarda delegatsiyamiz 8 ta oltin, 2 ta kumush va 3 ta bronza medalini qo‘lga kiritdi. Yakuniy natija bilan O‘zbekiston umumjamoa hisobida dunyo bo‘yicha o‘n uchinchi, Osiyoda to‘rtinchi, MDH, Markaziy Osiyo mintaqasi, Islom birdamligi va Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo mamlakatlar orasida birinchi o‘rinni egalladi. Ayol sportchilarimiz so‘nggi bor Pekin-2008 yozgi Olimpiya o‘yinlarida shohsupaga ko‘tarilishgan, Yekaterina Xilko trampolin dasturida bronza medali sohibiga aylangandi. Oradan yillar o‘tib, dzyudochi Diyora Keldiyorova esa Parijdagi g‘alabasi tufayli yozgi Olimpiya o‘yinlari chempioni nomiga sazovor bo‘lgan ilk o‘zbekistonlik ayol sportchiga aylandi. Taekvondochi Svetlana Osipova kumush medalni qo‘lga kiritdi, 3 nafar sportchimiz ikki karra Olimpiada chempioni nomiga sazovor bo‘ldi, dzyudo, boks, taekvondo kabi yo‘nalishlarda eng yuqori natijalarni qayd etdi.

Parij-2024 Olimpiadasiga tayyorgarlik davomida terma jamoalarimizga davlat tomonidan kerakli barcha sharoitlar yaratib berildi. Natijada ilk bor jamoaviy sport turi – futbol bo‘yicha Olimpiada yo‘llanmasiga ega bo‘ldik. Olimpiya o‘yinlaridan keyin Prezident Shavkat Mirziyoyev delegatsiya a’zolarini qabul qilib, yangi Olimpiya sikli uchun vazifalarni belgilab berdilar. Sport vazirligi, federatsiya va assotsiatsiyalar ushbu topshiriqlar ijrosi bo‘yicha ish boshlab yuborgan.

Yutuqlar o‘z yo‘liga. Olimpiya o‘yinlari qaysi yo‘nalishlarda ko‘proq ishlashimiz kerakligini ham ko‘rsatib berdi. Xususan, mashg‘ulotlar metodikasini takomillashtirish, zamonaviy sport infratuzilmasini yaratish, murabbiylar malakasini oshirish va yoshlar orasida sportni yanada ommalashtirishga zarurat borligini tushundik.

**8 TA OLTIN,
2 TA KUMUSH ,
3 TA BRONZA!**

**OSIYODA TO‘RTINCHI,
ISLOM DUNYOSIDA BIRINCHI,
MDHDA BIRINCHI!**



DAVLAT E‘TIBORI, HOMIYLIK, MOLIYAVIY QO‘LLOV, ZARUR SHART-SHAROITLAR, YAXSHI SELEKSIYA, UZLUKSIZ O‘QUV MASHG‘ULOTLARI, MALAKALI MUTAXASSISLAR

– OLIMPIYA O‘YINLARIGA PUXTA TAYYORGARLIK JARAYONIDA DAVLATNING ISHTIROKI QAYSI JIHATLARDA NAMOYON BO‘LMOQDA?

– Davlatimiz sportchilarning yirik kompleks musobaqalardagi munosib ishtirokini ta’minlash uchun barcha sharoitlarni yaratishga harakat qiladi. Federatsiyalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli sportchilarni seleksiya qilish, Olimpiya darajasidagi tizimli tayyorgarlik, malakali mutaxassislarni jalb qilish, uzluksiz o‘quv mashg‘ulot yig‘inlarini tashkil etish kabi ishlar shular jumlasidandir. 2021-yilning 5-noyabrida qabul qilingan “2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi Prezident Qarori bu yo‘lda dasturulamal bo‘lib xizmat qildi.

Bizda atletlarni rag‘batlantirish uchun o‘ziga xos tizim mavjudligini alohida ta’kidlash joiz. Masalan, ortda qolgan Olimpiya siklida nafaqat Parij-2024‘dagi sovrindor sportchilar, balki litsenziya sohiblari va ularning murabbiylari ham rag‘batlantirildi. Asosiysi, bu tizim qatorasiga uchinchi Olimpiya siklida tatbiq qilindi.

– O‘ZBEKISTON SPORTI QANDAY RESURSLAR HISOBIGA RIVOJLANTIRILMOQDA?

– Yuqorida tilga olingan hujjat bilan sport va ta’lim muassasalari faoliyatini o‘rta va uzoq istiqbolda rivojlantirish, Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadlari belgilangan. Ushbu qaror asosida sport va ta’lim muassasalari faoliyatini 2025-yilgacha rivojlantirish dasturi ham tasdiqlangan.

Sportni moliyalashtirish davlat byudjetidan tashqari homiy tashkilotlar hisobidan ham amalga oshiriladi. Bu tizimda mablag‘lar Sport vazirligi hamda Milliy Olimpiya qo‘mitasi orqali federatsiya hamda assotsiatsiyalarga yetkazib beriladi. Qolaversa, sport federatsiyalari va assotsiatsiyalarining o‘z homiylari ham mavjud, ularning ishtiroki muayyan sport turlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Davlat nafaqat professional, balki ommaviy sportga ham jiddiy e’tibor qaratadi. Yoshlar o‘rtasida o‘tkaziladigan “Besh tashabbus olimpiadasi” sport musobaqalari, aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash bo‘yicha sport sinovlari, ishchi-xodimlar o‘rtasidagi “Hukumat kubogi” kabi ommaviy musobaqalar davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Chunki ommaviy sport rivoji kelgusida oliy sport uchun yoshlarni seleksiya qilishda muhim rol o‘ynaydi.

FEDERATSIYA VA ASSOTSIATSIYALAR, TIZIM, SHAFFOFLIK, YAKDIL XULOSA, AUDIT

– MABLAG‘LARNING MAQSADLI VA SHAFFOF SARFLANISHI QANDAY NAZORAT QILINADI?

– Bu borada Milliy Olimpiya qo‘mitasi, Sport vazirligi, yo‘nalishlar bo‘yicha Respublika Oliy sport mahorati maktablari, federatsiyalar bilan ishlash bo‘yicha alohida tizim mavjud. Federatsiyalarning talab va ehtiyojlari, mutaxassislarning xulosalaridan kelib chiqib terma jamoalarga mablag‘ ajratiladi. Jarayon yuqorida aytib o‘tilgan tashkilotlar tomonidan bir necha bor o‘rganib chiqiladi. Yakunda yakdil xulosa asosida ish yo‘lga qo‘yiladi.

Milliy Olimpiya qo‘mitasi doimiy tarzda o‘z saytida xarajatlarning choraklik hisobotini berib boradi. Qolaversa, moliyaviy faoliyat mustaqil audit kompaniyalari tomonidan muntazam tekshirib boriladi.

Azamat MURODOV suhbatlashdi.



HAYOTIMDAN 60 MIN

YULDUZ RAJABOVA





yni pallada hayotimdan roziman. Ichimda ikkilanish, norozilik yo‘q. Shunday davrga yetdimki, nima muhim, nima benaf – ajrata olaman. Avval o‘ylangan, ko‘z yosh to‘kkan muammolarim, dardlarim uchun bugun qalbim qalqmaydi, boshim og‘rimaydi. Hayotda qadrlilarnigina qadrlash, qolganlarini “keraksizlik” chelagiga uloqtirish kerak ekan. Ayni shu xulosalar menga yordam beryapti. Ulg‘aydim, yaqinlarim yonimdaligi, tongda ularning ovozini eshitish saodati, ishonchi ko’nglimni tog‘dek ko‘taradi. Shundan quvvat olaman, baxtliman.

REJALIMANMI?

Bu ish bilan bog‘liq. Masalan, kasbimni o‘lguday yoqtiraman. Kasbim bilan bo‘g‘liq qanday reja bo‘lishidan qat’i nazar yorqin ishtiyoq bilan yondashaman. Jiddiy qarayman. Ishim bilan bog‘liq muammolarimga na dangasalik, na hafsalasizlik xavf solmaydi. Qattiq jidd-u jahd qilaman.

Hayotiy rejalar borasida esa biroz boshqacha. Nimanidir reja qilib, ortga surib tashlashim juda oson. Bu atrofimdagi vaziyatlarga bog‘liq. Ko‘ngilni qoldirishsa, qo‘lim ishga bormay qoladi. Tevarakdagi odamlar, muhit ko‘p narsani belgilaydi. Qolaversa, ancha ta’sirchanman. Bezishim oson. Shu sababmi, hozir o‘zimni ko‘p ayayman. Salbiy energiyali insonlardan uzoq yurishga urinaman. Hayotim borasidagi rejalarga qat’iymasman, to‘g‘ri. Ammo har qadamini reja bilan bosadiganlarga havasim keladi. Bu juda qiyin, katta diqqatni talab qiladi. Hayotda shunday odamlar yutadi deb bilaman. Har dam g‘animat, uni qadrlash, chekimizdagi fursatlardan unumli foydalanish kerak.

MUAMMONI QABUL QILAMAN

Inson atrof bilan murosa qilishi, ulardan ko‘ngli to‘lishi oson emas. Bu muammo hammada bor. Jumladan, menda ham. Ammo ruhiyatim ustida muntazam ishlab kelyapman. Misol uchun, muammo tug‘ildimi, avval uni qabul qilishga, undan keyin esa ko‘nglim to‘lmagani ortidan kelgan ishonchsizlikdan uzilib, o‘zimni tiklashga, yana hayotga qaytishga ehtiyoj sezaman.

To‘g‘ri, faqat o‘zimning harakatlarim bilan tiklanolmayman. Suhbatdosh do‘st, dugona, tushunadigan yaqinlar yordami tushkunlikdan chiqaradi. Kerakli paytda yangragan to‘g‘ri so‘z, maslahat ko‘p narsani o‘zgartiradi. Uning ustiga to‘g‘ri tanlangan kitob, kino ham izsiz ketmaydi. O‘zing bilan yuzlashtiradi. Shulardan keyingina o‘zimni urushmasdan, ayblamasdan, to‘g‘irlashga harakat qilaman. Tushunganingizdek, bu oson jarayon emas...

JAKET, SHIM
ALEXANDRE VAUTHIER
SLINGBEK
LE SILLA



GLAMOUR AVENUE | PODIUM

KOLYE
ALESSANDRO RICCI
KO'YLAK
SELF-PORTRAIT

Hamroh, hamdam, hamfikrlar qadri

YO‘LSIZ YURSANG HAM...

“Odam yo‘lsiz yursa ham, pirsiz yurmasligi kerak” hikmatli gapi bor edi ustozim Bahodir Yo‘ldoshevning. Ularning ko‘p o‘gitlari hozirgacha yuragimda. Mag‘zini sekin-asta chaqib yashayapman. Anglaganim sari kuch beradi.

Kishi yo‘lsiz qolsa ham, hamdami, piri, maslahatgo‘yi bo‘lishi kerak. To‘g‘ri hamdam, suhbatdoshgina yo‘lingni, o‘zingni topishga turtki bera oladi. Ko‘nglini ochadigan va uni anglaydigan suhbatdoshi bo‘lmasa, odam o‘zini yolg‘iz his qiladi. Insonni yolg‘iz qoldirmaslik kerak. She’rda aytilganidek, “Yolg‘izlik insonga o‘lim-ku, axir”.



ISHONCHSIZLIK...

Ishonchsizlik bor. Ba'zan qo'rquv ham. Hayot qiziq ekan. Tushkunlikka tushgan payting, ortga qarasang, juda charchaganingni, kuching qolmaganini his qilar ekansan. Oldga qarasang, hayot endi boshlanayotganday, ko'p kuch kerakday tuyular, ana o'shanda qo'rquv bostirib kelar ekan. Kuchim yetarmikan degan o'ylar tinch qo'ymaydi. Ammo qo'rquv – bu qo'rquv. Oshib o'tolmaydigan tog' emas, uni yengsa bo'ladi. Yengish esa o'z qo'limizda.

QIYOFALARIM...

Men ijro etgan obrazlarda o'z qiyofam ochilgan. Hatto to'liq ochilgani ham bor. Lekin hali ko'rinmagan qirralarim ko'p. Bu jarayon. U to'g'ri kechyapti o'ylayman. O'sha meni to'liq ochadigan rolni o'ynash uchun vaqt yetib kelishi, odam o'ziga vaqt ham berishi kerak. Shunday ekan hozircha hammasi soz. Vaqtda, jarayonda yana ochilib boraveramiz. Bir narsa aytay, xuddi hayotim kabi hozirgacha ijro etgan rollarimdan roziman, ko'nglim to'q.

TILLANISO oqqa ko'chirdi.

Qo'rquv oshib bo'lmas tog' emas

KO'YLAK
ZIMMERMANN
SLINGBEK
LE SILLA



PODIUM

120% LINO	Acne Studios	ALESSANDRA RICH	alexanderwang	ami	AMIRI
AUTRY	BALMAIN PARIS	BERWICH	BOGNER	Brioni	BURBERRY
CAPOBIANCO	CASTANGIA	Cesare Lombardi	CLOSED	CORNELIANI	DAVID KOMA
DOUCAL'S	eleventy	EMPORIO ARMANI	FABIANA FILIPPI	FERRAGAMO	FRADI
Giannetto Rossi	GIVENCHY	1952 GRAN SASSO	HAIKURE	L'HINNOMINATE	HUGO
IRO	JACQUEMUS	JWANDERSON	LATORRE	LESILLA	Lorena Antoniazzi
L.B.M. 1911	LUCIANO BARBERA	MACH & MACH	MACKAGE	Mandelli	MARINA RINALDI
MQUEEN	MONCLER	Montecore	Neil Barrett	Off-White	PESERICO
PINKO	Santoni	SCABAL		self-portrait	STILE LATINO
STONE ISLAND	STUDIO NICHOLSON	THE ROW	TOD'S	TOM FORD	
VALENTINO	WEEKEND MaxMara	Y-3	ZADIG&VOLTAIRE	ZILLI	ZIMMERMANN

Uzbekistan, Tashkent, Mirabad str. 62, Residential Complex Mirabad Avenue, Block C Tel.: +99878 122 01 12
Uzbekistan, Tashkent, Zarafshon str. 17 Tel.: +99871 232 38 38
Podium Tashkent Podium.Tashkent www.podium.uz

TIMOTI SMART

“ILK BOR MARKAZIY OSIYOGA KELGANIMDA UMIDSIZLIK, AROSAT KAYFIYATINI HIS QILGANDIM... BUGUN ESA DUNYO NIGOHIDA O‘ZINI TOBORA ISHONCH BILAN NAMOYISH QILAYOTGAN YANGI O‘ZBEKISTONGA GUVOH BO‘LMOQDAMAN”. BU BUYUK BRITANIYANING O‘ZBEKISTONDAGI ELCHISI TIMOTI SMARTNING FIKRLARI. U UZBEKISTAN’S CLUB’GA BERGAN INTERVYUSIDA MAMLAKATDA O‘ZI KUZATAYOTGAN IJOBIY O‘ZGARISHLARDAN TORTIB, POYTAXTNI YAXSHILASH BO‘YICHA TAKLIFLARIGACHA TO‘XTALIB O‘TDI.



ELCHI UMID ILA O‘ZAR

160 YILDAN ZIYOD KUTILGAN O'ZGARISH

Ilk bor Markaziy Osiyoga 2000-yilda kelgandim. O‘sha vaqtda mintaqada yopiqlik kayfiyati, iqtisodiy turg‘unlik sezilar, korrupsiya keng ildiz otgan, erkin demokratik jamiyat orzusi sarobdek tuyulardi. Yodimda, “Mintaqa rivojlanishi, huquqqa asoslangan xalqaro tizimda o‘zining munosib o‘rnini egallashi uchun qanday yordam ko‘rsata olamiz?” deb so‘ragandim. Buni tasavvur qilishning o‘zi qiyin edi. Bugun esa Shavkat Mirziyoyev hokimiyatga kelganidan sakkiz yil o‘tib, Yangi O‘zbekiston barcha qo‘shnilari bilan muloqotga kirishayotganini kuzatish ne baxt? Ayni damda Markaziy Osiyo davlatlari har qachongidan mustahkam hamkorlik qilmoqda, umumiy tarix, madaniyat va merosining dong‘ini taratmoqda. Afsuski, bunday o‘zgarishni 160 yildan ziyod kutishga to‘g‘ri keldi. O‘zbekiston jahon minbarida o‘zini tobora ishonch bilan namoyish qilayotgani, boy madaniyati, tili va iqtisodiy muvaffaqiyatini ko‘rsata olayotganini kuzatish menga ulkan zavq bag‘ishlaydi.

Qadimiy tarixshunos sifatida Xiva, Buxoro va Samarqand kabi shaharlarni o‘rganish men uchun g‘oyat qiziqarli. Buyuk Ipak yo‘lini dunyoning tarixiy savdo markazi sifatida qayta kashf qilayotganingiz, buning iqtisodiy taraqqiyotga erishish, dunyoda o‘z o‘rningizga ega bo‘lishdagi ahamiyatini tushuna boshlaganingiz kishini quvontiradi. O‘zbekistondagi mehmonnavozlik, bozorlarda dimoqni qitiqlovchi tarovatlar, oshxonangiz, amaliy hamkorlik imkoniyatlarini izlayotib madaniyatingizni o‘rganish – bari meni o‘ziga rom etadi.

CHOYDAN TORTIB SPORTGACHA: O'ZBEK VA BRITANLARNING MUSHTARAKLIKLARI

Shubhasiz, bu ikki xalqni birlashtirib turgan narsa, eng avvalo, choy. O‘zbeklar ham, britanlar ham bir piyola choy ustida shinavandalik qilishni yaxshi ko‘rishadi. Shuningdek, tarixga bo‘lgan chuqur ehtirom, oilaga muhabbat va oshxonaga qiziqish kabi umumiy jihatlarimiz bor. Biz britanlar taomlarni muhokama qilish, restoranlarda ovqatlanib, diydorlashishga jon deymiz. Ammo bu borada sizlarga bas kela olmasligimiz rost! “Xush kelibsiz!”da jam bo‘lgan mehr va iliqlik, mazasi og‘zingizda qoladigan taomlar – chin ma’noda kishini hayratga soladi. Shuningdek, sizlardagi keksalarga nisbatan e’zoz, turli avlod vakillari jamlangan oiladagi hamjihatlik hissi meni jo‘shqinlantiradi. “Buvi” va “buva”larning nevaralar qurshovida yashashi, qon-qarindoshlik aloqalarining mustahkamligi tahsinga loyiq. Qolaversa, sportga ishqibozlik ham birlashtirib turadi. O‘zbekiston Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida misli ko‘rilmagan muvaffaqiyatga erishib, medallar soni bo‘yicha 13-o‘rinni egalladi, bu kelgusida yanada kattaroq natijaga erishish ishtiyoqini uyg‘otadi. Buyuk Britaniyada ham Olimpiya o‘yinlariga qiziqish va e’tibor kuchli, bu 2012-yilgi o‘yinlarda yaqqol namoyon bo‘ldi. Ustiga-ustak, ikki xalqning ham futbolga bo‘lgan mehri cheksiz.



O'ZBEKISTON DOVRUG'INI SOCHAYOTGAN O'ZBEKISTONLIKLAR

Yuqorida qayd etganimdek, 2000-yilda Markaziy Osiyoga qilgan tashrifim mintaqa haqidagi tasavvurlarimning shakllanishiga ta'sir ko'rsatmay qolmagan. O'sha kezlarda umidsizlik va arosat hissi hukmrondek edi go'yo. Bugun esa vaziyat tubdan o'zgargan. Xalq sifatida yagona maqsad va taraqqiyot sari ishonch bilan qilinayotgan harakat kishini to'lqinlantiradi. "O'zbekistonlik" loyihasi san'at, fan, adabiyot va teatr kabi turli sohalar orqali bu ishonchni namoyish qilmoqda. Loyiha xalqingiz o'zligini, muvaffaqiyatlarini dunyoga ko'z-ko'z qilib, O'zbekistonning shuhratini taratmoqda.

Tarix, madaniyat va til bosim ostida bo'lgan 160 yillik davrdan keyin zaminingizda chin ma'nodagi mustaqillik, madaniyat va tarix tantana qildi, bugun bo'lajak avlodlar uchun kuchliroq, adolatliroq, farovonroq mamlakat barpo etish yo'lidan bormoqdasiz. Bu haqiqatda muhim voqelik. Buni qo'llab-quvvatlagan holda Buyuk Britaniyaning eng sara tajribasi bilan baham ko'rishni, shuningdek, O'zbekistondagi yorqin shaxslardan namuna olishni istaymiz. Maqsadimiz – barcha mamlakatlar BMT Nizomiga amal qiladigan, davrning iqlim o'zgarishi kabi muhim muammolariga yechim topishda, kambag'allik, ta'lim va gender tengligi kabi masalalarda hamkorlik qilishdir. Xalqlarimiz, biznes subyektlari va hukumatlarimiz o'rtasidagi do'stlik mustahkamlanib borayotganiga kun sayin guvoh bo'lyapman va bu meni quvontiradi.

O'zbekistonda yuqori malakali ishchi kuchi borligini aytib o'tdim, ayniqsa, "O'zbekistonlik" kabi tashabbuslar doirasida sizdagi iste'dodli ishchi kuchi turli sohalar, jumladan, moliya, fan, ta'lim, kreativ sanoati va qishloq xo'jaligi kabilarda hamkor sifatida ko'rilmoqda. Minglab mehnat migrantlari Buyuk Britaniyada ishlab, o'z yurtiga qaytgach, topgan daromadini oilaviy imkoniyatlarini kengaytirish uchun sarmoya sifatida kiritayotgani kishini quvontiradi. Bu o'zbekistonliklarning xorijda ishlash imkoniyatlarini oshiradi.

Dunyoda nufuzli universitetlar ko'p. Lekin eng yaxshi universitetlar TOP-10 taligi ichida uch-to'rttasi Buyuk Britaniyada ekanligini ko'rish mumkin: Oksford, Kembrij, London imperial kolleji va London universiteti. Qolaversa, dunyo TOP-100 taligidan joy olgan universitetlar ham talaygina. Buyuk Britaniya universitetlarida tahsil olish tanlangan sohada dunyoning eng peshqadam bilimdonlaridan saboq olishni bildiradi, deyish mumkin. O'z-o'zidan, bu sohada dunyoning eng ilg'or mutaxassisi bo'lish imkoniyatini beradi. Britaniyaning boy tarixi va madaniyatiga yaqinlashish orqali ingliz tili bo'yicha bilim va ko'nikmalarni sayqallash mumkin bo'ladi.

TOSHKENTNI YAXSHILASH BO'YICHA TAKLIFLAR:

I. Elektr avtomobillarga o'tish – eng avvalo shuni taklif qilgan bo'lardim. Bu boradagi progress maqtovga loyiq, ammo elektrlashishni yanada rivojlantirish foydadan xoli bo'lmasdi.
II. Havo sifatini yaxshilash – bu aholining umumiy salomatligi va hayot sifatini qisqa muddatda yaxshilash imkonini bergan bo'lardi.
III. Yo'l harakati qoidalarini kuchaytirish. Bu ish yo'llar xavfsizligini oshirib, tirbandlikni kamaytiradi.
IV. Aylanma harakatli chorrahalarda yagona qoida belgilab, ularning rioyasini ta'minlash. Bu turdagi chorrahalar ko'paysa va qoidalar tushunarli bo'lsa, transport oqimi yaxshilanadi.
V. Yangi aeroport zarur. Yil sayin sayyohlar oqimi oshib bormoqda, aeroport esa muvofiq tarzda kengayishi lozim. Buyuk Britaniya aeroport loyihalash, qurish va ishga tushirish borasida yetakchi, bu yo'nalishda hamkorlikka tayyormiz.
VI. Metroingiz ajoyib, menga yoqadi. Shunga qaramay, nazarimda, uni yanada zamonaviylashtirsa bo'ladi, bu ko'proq odamlarni avtomobil o'rniga metrodan foydalanishga undagan bo'lardi. Yo'lovchilar oqimini oshirish va xizmat ko'rsatishning umumiy sifatini yaxshilash yo'llarini ham o'rganib chiqish mumkin.





ORZULAR

7-NOYABR. SOAT 16:40. TOSHKENT XALQARO AEROPORTI. HAVO HARORATI 7 DARAJA. IZG'IRIN SOVUQ. UZBEKISTAN AIRWAYS RAHBARIYATI, JURNALISTLAR, AEROPORTNING YASHIL NIMCHA KIYGAN XODIMLARI. BARCHANING NIGOHI UFQQA TIKILGAN. QUYUQ BULUTLAR ORASIDAN ALLANIMANI IZLASHYAPTI... VANIHOYAT! KUTILAYOTGAN UCHOQNING SHASSILARI YER BILAN UCHRASHDI.

UCHISH-QO'NISH YO'LAGINING IKKI CHETIGA O'T O'CHIRISH MASHINALARI BORIB JOYLASHDI. ULAR YUQORIGA QARAB SUV PURKAY BOSHLADI. FAVVORALAR TUTASHIB, YOY HOSIL QILDI. ANIQROG'I, GUVILLAGAN, JILG'ALI BIR ARK. YANGI LET L-410 HAVO KEMASI USHBU YOMG'IR ARKI OSTIDAN O'TIB, BELGILANGAN JOYDA TO'XTADI. SALOMLAR, QUTLOVLAR, GULLAR, INTERVYULAR, FOTOSURATLAR... FLOTNING YANGI A'ZOSI MUVAFFAQIYATLI VA TANTANALI KUTIB OLINDI.

ARZI

Matn: Saidaziz A'ZAMOV

L-410 ICHKI REYSLAR HAMKORLIK GLOBAL RAQOBAT O‘ZGARISH



Uzbekistan Airways boshqaruv raisi Shuhrat Xudoyqulov aeroportdan yana ofisiga oshiqmoqda. Yo‘lda suhbatimiz boshlandi:

– Bu L-410 flotimizda uchinchisi bo‘ldi, avvalroq shu modeldagi havo kemasidan ikkitasini sotib olgan edik. Bu uchoqlar Mo‘ynoq, Zomin, Shahrisabz kabi hududlarga boradigan yo‘lovchilarimiz uzog‘ini yaqin qiladi. Odamlarimiz bugun ko‘p uchishyapti. Mahalliy aviaqatnovlar bozorida biz, xususan, bizga qarashli Silk Avia’dan tashqari bir nechta aviakompaniya bor.

– Demak, Uzbekistan Airways ortiq monopolist kompaniya emas. Raqobat bor.

– Ha, lekin biz mahalliy aviakompaniyalarimiz uchun raqobatchi emasmiz. Bu aviakompaniyalar rahbarlari, mutaxassislarining aksariyati avval Uzbekistan Airways’da ishlagan... Ular bilan yaqin hamkormiz. Misol tariqasida, bir xususiy aviakompaniya uchoqlar sotib olgach, rejalari kechikdi, biz u kemalarni qisqa muddatli shartnoma bilan ijaraga oldik. Xullas, hamjihatmiz, munosabatlarimiz do‘stona.

Ofisga kirgach, qahva ustida transformatsiya haqida gaplasha boshladik.

– Buning barchasi – O‘zbekistonda 2017-yildan keyin boshlangan katta islohot dasturining sharofati. Davlat rahbarining tashabbusi va maxsus farmoni bilan 2018-yilda bizning kompaniya o‘zining turli funksiyalaridan ozod qilinib, aviakompaniya sifatida ajratildi. Aeroportlar alohida kompaniyaga o‘tkazildi, alohida regulyator tashkilot shakllantirildi. Kompaniyamizning transformatsiyasi ham, fuqaro aviatsiyasi sohasini zamonaviylashtirish ham ayni shundan start oldi, deb o‘ylayman.

Ish nimadan boshlandi? Men xorijdan qaytib, aviakompaniyaning tijoriy direktori bo‘ldim. Chet davlatlarda men kabi 40 dan ortiq vakilimiz bor edi. Biz ularni O‘zbekistonga qaytarib, to‘plagan bilim va tajribalarini shu yerda joriy etishga undadik. Chipta narxini tushirdik, qatnovlar sonini ko‘paytirdik, aviaparkimizdagi samolyotlar sonini muntazam oshirib kelyapmiz. Yiliga 7-8 ta uchoq qo‘shib. Flot kengayyaptimi, demak, ko‘proq ishchilar, uchuvchilar, bort kuzatuvchilar, havo kemalariga xizmat ko‘rsatuvchi, ularni ta’mirlovchi jamoa kerak. Hamma xodimlarni o‘zimizda xalqaro standartlarga mos tarzda va milliy o‘ziga xosliklarni hisobga olib o‘qitish tizimini rivojlantirdik. Eng so‘nggi modeldagi samolyotlarga ham chet elda emas, o‘zimizning Uzbekistan Airways Technics korxonasida xizmat ko‘rsatiladi.

– Shu yil yozda Uzbekistan Airways rebrending qilganida “Markaziy Osiyo qanotlari” degan shiorni tanladi. Demak, kompaniya raqobatchilarini mamlakat ichidan emas, mintaqamizdan qidirishi kerak ekan-da?

– Nafaqat mintaqadan! Bu butun dunyoga qaratilgan messej. Avval Havo yo‘llari kompaniyasi aeroportlarga egalik qilardi. Xorijiy kompaniyalar qaysi shaharlarimizga parvoz ochishini ham “Havo yo‘llari”ning o‘zi hal qilar, aviatsiya tilida aytganda, “slot” berar edi. Hozir Uzbekistan Airports kompaniyasi bilan shartnomamiz bor, dunyoning boshqa aviakompaniyalari ham biznikiga o‘xshash shartlarda O‘zbekistonga kirib kelyapti. Mana eng katta raqobat! Bizning ham Turkiyaga reyslarimiz bor, Turkish Airlines’ning ham. Biz ham Koreyaga parvozlar yo‘lga qo‘yganmiz, Korean Air ham. Bozor munosabatlariga asoslangan bunday yangi vaziyat bizni yangicha fikrlashga, kompaniyaning turli bo‘g‘inlari bo‘ylab katta o‘zgarishlar qilishga undayapri. Bozor chipta narxini belgilayapti, xizmat ko‘rsatish hamda ketring (uchoqda ovqat bilan ta’minlash) sifatini yanada oshirishni taqozo qilyapti.

To‘g‘ri, ko‘plab ko‘rsatkichlar bo‘yicha biz Air Astana’ni o‘zimizga raqobatchi sifatida ko‘ramiz. Ammo mintaqamizda Nyu-Yorkka faqatgina Uzbekistan Airways’ning to‘g‘ridan-to‘g‘ri reysi bor. Tokioga ham. Qo‘shni mamlakatlardan avval Toshkentga kelib, keyin boshqa davlatlarga uchib ketish tendensiyasi rivojlanyapti.



TRANSFER YONILG‘I NARXLAR IFRS 90-YILLAR TARIX KELAJAK

– Toshkentni ham Istanbul kabi sharq va g‘arb uchrashadigan yerga aylantirish o‘ta balandparvoz maqsad emasmi?
– Ha, lekin biz geografik jihatdan unikal hududda joylashganmiz. O‘zaro ko‘p yo‘lovchilarni almashadigan manzillarning qoq o‘rtasidamiz, Osiyo va Yevropani bog‘lab turibmiz. Aslini olganda, bizda transfer yo‘lovchilar bo‘yicha ijobiy ko‘rsatkichlar yo‘q emas. Shu yil yakuniga qadar umumiy mijozlar sonida transfer orqali uchadiganlar ulushini 10 foizga yetkazmoqchimiz. Jamoamiz kelayotgan yillarda buni 30 foizdan ham oshirish niyatida.

– Asosan qaysi yo‘nalishlar bog‘lanyapti shunda?
– Masalan, Uzbekistan Airways orqali Dehlidan Toshkentga kelib, Londonga uchib ketish mumkin. Biz orqali Koreyadan Yevropaga yo‘l olish mumkin.

Umuman, Toshkentni xalqaro reyslar bir-biriga ulanadigan xabga aylantirish uchun parvozlarimiz geografiyasini ham kengaytirishimiz kerak. Yaqinda Toshkent-Lahor-Toshkent reysi qayta tiklanadi. Biz uchun Pokiston ham katta bozor.

Biroq bizda bir katta og‘riqli masala bor. Bu ham bo‘lsa, aviayonilg‘i. Aviatsiyamiz talabining nari borsa 50 foizi mahalliy taklif bilan qondiriladi. Ya’ni yana shuncha import qilishimiz zarur, import qilinadigan aviakerosin esa 30 foiz qimmatroqqa tushadi. Dunyodagi geosiyosiy vaziyat tufayli narx oshib borishi mumkin. Bu esa albatta tannarxga, oxir-oqibat chipta bahosiga ta’sir qiladi. Transfer reyslar odatda arzonroq bo‘ladi, bu maydonda raqobat qilish juda qiyin.

Qiyinchiliklar bor, lekin nima bo‘lganda ham biz oldinga intilyapmiz, biznes optimizatsiya bo‘yicha eng zo‘r mutaxassislar jamlangan departamentimiz moliyaviy hisob yurituvini ham xalqaro standartlarga moslayapti.

Respondentim onlayn sotuvlar tizimi, yangi dasturiy ta’minotni joriy qilish kabi erishilgan natijalar haqida ishtiyoq bilan so‘zladi.

– “Juda katta maqsad qo‘yib yubormadingizmi?” degan savolingizga javob bular ham. “Markaziy Osiyo qanotlari” nomiga loyiq bo‘lishga intilish har kuni ishga kelarkanmiz bizni, jamoamiz a’zolarini ilhomlantiradi, g‘ayrat bag‘ishlaydi.

Soatimga qaradim, 19:00 dan oshibdi. Tabiiy savol tug‘ildi:

– O‘zi nechagacha ishlaysiz?
– Eng ertasi 22:00 da ketyapman. Mana, qarang, hali shuncha xatni ko‘rib chiqishim kerak.

Rais stol ustida turgan jildlarni ko‘rsatdi. Chamalab, 15 tacha jild sanadim.

– Mana bu jild aviakompaniyamizda 90-yillarda ishlatilgan ekan. Ofisdan topib oldim va har kuni ishlatyapman. Nega? Sababi bu ham ilhom manbayi. 1993-yilda “O‘zbekiston Havo Yo‘llari” Airbus A310 rusumli, o‘sha davrdagi O‘zbekiston uchun “kosmos” hisoblangan uchoqni xarid qilib, uni O‘zbekiston bayrog‘i rangiga bo‘yab, jahon bo‘ylab parvozlar ochgan. Bunaqa samolyot butun MDHda faqat bizda bo‘lgan, hatto Rossiyada ham yo‘q edi. Milliy valyutamiz bo‘lmagan, mutaxassislar esa anqoning urug‘idek yetishmayotgan vaqtlar... Bu bir kichik misol. Eh-he, o‘sha zamonda aql bovar qilmas ishlar qilingan.

Suhbatimiz shu nuqtada emas, kompaniyani toblayotgan qiyinchiliklar, ammo ishning nihoyatda qiziqarli ekaniga oid mushohadalardan so‘ng nihoyaladi.

Kabinetdan chiqqach, Shuhrat Xudoyqulovning biografiyasi haqida o‘yladim: 2006-yil Sankt-Peterburgdagi aviatsiya bilim yurtini tamomlab, bir umr Uzbekistan Airways’da ishlagan inson. Jamoasi bilan yiliga 5 million yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatayotganidan behad faxrlanayotgan qahramonimiz nafaqat siz-u biz, balki yuzlab xodimlarning orzulari parvoziga javobgardek.

Ucell

Mahallada duv-duv gap

Endi Oyposhshaning
o‘zlari ham Ucell'da!

SHARH

TADBIRKOR biznes-strateg

ZAFAR HOSHIMOV



2016-yilda Korzinka supermarketlar tarmog‘i 18 dona savdo nuqtasiga ega edi. “O‘shanda juda tez o‘sib ketayotgandek edik, yomon ko‘zlardan panaroqda bo‘laverish kerakligini o‘zimizga o‘zimiz uqtirardik”, deb eslaydi kompaniya asoschisi va kuzatuv kengashi raisi Zafar Hoshimov. 2019-yilda O‘zbekiston bo‘ylab Korzinka’lardan 50 tasini sanab chiqish mumkin edi. Bugunga kelib bu raqamlar 200 ga yaqinlashmoqda. Kompaniya jamoasidan so‘rasangiz, ular bu marrada ham to‘xtab qolish niyatida emas.

Kompaniya yirik investorlardan tarmoqni kengaytirish, modernizatsiya, xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta’minlash hamda Markaziy Osiyoda yagona – naq 50 ming kvadrat metr maydonli logistika markazini qurish uchun mablag‘lar jalb qilgan.

Shuning uchun savdo sohasidagi eng katta soliq to‘lovchi va ish beruvchiga aylangan ushbu kompaniya asoschisi Zafar Hoshimovga biznesni kengaytirish sirlari haqidagi savollarimiz bilan mikrofon tutdik.

KENGAYISH
KORPORATIV
BOSHQARUV
EDGE
ESG
CSR
EBRD
IFC
DEG
KORZINKA
MAHALLA
STRATEGIYA
TEXNOLOGIYA
LOGISTIKA
DISTRIBUTSIYA
MILLIY
XUSUSIY
SEKTOR
CHEMPION


BASIRAT

Tadbirkor inglizcha qilib aytganda “vision”ga, ya’ni kelajakni ko‘ra bilish qobiliyati, o‘zi qurmoqchi bo‘lgan biznes va uning jamiyatdagi o‘rni haqida tasavvurga ega bo‘lishi zarur. Bu, ayniqsa, katta biznes barpo qilmoqchi, o‘zining savdosi, faoliyat doirasini kengaytirmoqchi bo‘lgan ishbilarmonlar uchun juda muhim.

XAYOLOT

O‘ylaymanki, haqiqiy tadbirkorlar qaysidir ma’noda xayolparast bo‘ladi. Ular kelajak orzulari bilan yashaydi. Biznes egalari o‘zlari ishlab chiqarayotgan tovar yoki ko‘rsatayotgan xizmat qanday qilib odamlarning hayotini o‘zgartira olishi haqida tafakkur qilishi kerak. Toki “odamlarning turmushiga qanday yangilik va yengillik olib kira olaman” degan o‘y ularni harakatlantirsin. Shunda ular muvaffaqiyatli va serdaromad biznesni tashkil qilish uchun g‘ayrat topa oladi, jamoalarida xayrixoh va iste’dodli odamlar bo‘ladi. Eng muhimi, mahsulotlarini mijozlar doimo qadrlaydi.





ISHTIROK

Biznes yuritishni kinofilm suratga olish jarayoniga qiyoslaydigan bo‘lsak, tadbirkor unda faqatgina prodyuser yoki rejissyor kursisida o‘tirmaydi. Bu boshlangan ish qanday bosqichda ekaniga bog‘liq. Tadbirkorlik – dinamik jarayon. Biznesni endi boshlaganingizda o‘zingiz operator, rejissyor, kostyumer, grimchi, ssenariy muallifi va hatto bosh roldagi aktyor bo‘lasiz. Biznesingiz rivojlangani sari jarayondagi maxsus ishlarga o‘z mutaxassislarini mas’ul qilib belgilaysiz.

DINAMIK JARAYON OPERATSION BOSHQARUV XALQARO STANDARTLAR INVESTITSIYA SERTIFIKATSIYA KUZATUV MUTAXASSISLAR

SHATRANJ

Muvaffaqiyatli, keng quloch ochib parvoz qila oladigan biznesmen, albatta, strateg bo‘lishi kerak. Undan turli biznes jarayonlardan iborat butun boshli kompaniya faoliyatiga yuqoridan nazar tashlash va jamoani optimal natijalar sari yetaklash talab qilinadi.

Biroq, aytganimdek, kompaniyani rivojlantirishning dastlabki bosqichlarida tadbirkor barcha bo‘limlar faoliyatida birma-bir ishtirok etadi. Shu sababli u jarayonlar zanjirida nima sodir bo‘layotganidan yaxshi xabardor bo‘ladi.

Biznes rivojlanib borgani sari esa uning asosiy vazifasi mutaxassislar uchun kerakli resurslar va sharoitni ta’minlab berish hamda kuzatish bo‘ladi. Hatto boshqarish ham emas. Yaxshi boshqaruvchilik mahoratiga ega to‘g‘ri mutaxassislarni to‘g‘ri pozitsiyalarga qo‘yishning o‘zi kifoya. Kattalashmoqchimisiz? Operatsion boshqaruvdan chiqib, biznesning uzoq muddatli rejalari va keyingi qadamlari haqida bosh qotiring.

Saidaziz A’ZAMOV suhbatlashdi.

KELAJAK SARI

O‘zbekiston texnologiyalar va tadbirkorlik uchun yangi, jozibali makonga aylanishga tayyor – Yandex Uzbekistan rahbari Izzat Shukurov shunday fikrda. Kompaniya AT mutaxassislarning yangi avlodiga ilhom bag‘ishlabgina qolmay, texnologiyalar hamda biznesni qo‘llash orqali jamiyat ravnaqiga hissa qo‘shishni o‘z vazifasi deb biladi.

PILLAPOYA

IT HUB
PURPOSE OVER PROFIT
IJTIMOIY MAS'ULIYAT

Men faqat sotuvga asoslangan biznesga ishonmayman. Nazdimda, eng muhimi, biznes qiymat yaratishi kerak. “Shaharni qanday qilib qulay hududga aylantirish mumkin? Bolalar aravachasini yetaklagan onaning og‘irini qanday yengillatsa bo‘ladi?” degan savollar ustida bosh qotirsangiz, bu boshqa gap. Gap mas’uliyatda, odamlar bilan rishtalarda. Mahsulot insonlar hayotini osonroq, qulayroq, yaxshiroq qila olsagina, qiymat hosil bo‘ladi. Shunchaki xizmat sotmasdan, ekotizim yaratish ustida ishlasangiz, ortingizdan iz qoldirayotganingizni his qilasiz. Mutlaqo boshqa biznes paydo bo‘ladi. Bu endi shunchaki “oldi-sotdi” emas. Bu dunyoga ta’sir ko‘rsatish demak.

Yandex Uzbekistan’ning o‘z xaritalarida qulaylik belgilarini joriy qilishi yuqoridan tushgan tashabbus bo‘lgani yo‘q. G‘oya jamoaning o‘zida tug‘ilgan. Kimdir onalar bolalar aravachasi bilan zinapoyalardan ko‘tarila olmayotganini payqadi. Va bunday bo‘lmasligi kerak, degan xulosaga keldi. Hozirda Ijtimoiy himoya milliy agentligi bilan birgalikda xaritani ma’lumotlar bilan boyitib boryapmiz: qayerda pandus bor, qayerda yo‘laklar keng, nogironlar aravachasi bilan harakatlanish mumkin, qayerda liftdan foydalansa bo‘ladi. Shuningdek, Agentlik tashabbusi bilan O‘zbekistonning uchta shahrida sinov tariqasida ijtimoiy taksi loyihasini yo‘lga qo‘ydik: nogironligi bo‘lgan bolalar davlat tomonidan ajratiladigan oylik byudjet hisobidan taksida maktabga qatnay olishadi. Bunday safarga Yandex Go ilovasi orqali buyurtma berish mumkin, xizmat uchun komissiya to‘lovi mavjud emas, davlat tomonidan ajratiladigan barcha mablag‘lar to‘g‘ridan-to‘g‘ri haydovchilarga to‘lanadi.

Ishonaman: O‘zbekiston yoshlari dunyodagi eng sara tengdoshlari bilan bellasha oladi. Bizdagi iste’dodlar qat’iyatli, bilimga o‘ch, maqsadlari yuksak. Bunga har kuni o‘z kompaniyamiz misolida guvoh bo‘laman. Mening vazifam nima? Uchqun yoqish va uning alangalanishiga imkon berish. Bugun mamlakatda davlat va xususiy venchur tashabbuslar paydo bo‘lmoqda, kapital hajmi oshib boryapti. Ammo startaplar hali oz. Bu me’yoriy holat: tavakkalchilik uncha rivojlanmagan, shov-shuvli holatlar ham sanoqli. Ammo bu vaqt masalasi. Bozorda AT kompaniyalar va ekspertizalar ortgani sari yoshlarda o‘zini sinab ko‘rish imkoniyati ham oshib boradi. Muhimi – texnologiyalar shunchaki ish emas, balki dunyoni o‘zgartirish uchun imkoniyat ekanligini ko‘rsata olish. Bunday muhitda o‘rganish qiziq, hamfikrlar ko‘p. Shuning uchun bozorni imkoniyatlar bilan to‘ldiryapmiz: dasturlash maktablari, amaliyotlar, pedagoglar uchun dasturlar, Yandex Cup kabi chempionatlar.

INKLYUZIVLIK
YANDEX MAPS
RAQOBATBARDOSH





YANGI AVLOD
TEXNOLOGIYALAR DUNYONI O‘ZGARTIRIB

Yoshlar AT'ga shunday qarasinki, uni amalda foyda beradigan, insonlarga naf keltiradigan nimadir yaratish imkoniyati sifatida ko‘rsin. Yosh dasturchi o‘zi yaratgan kodning mahsulini amalda ko‘rsa – mana bu mo‘jiza. Minglab insonlar foydalanadigan tugma. Buni amalga oshirish uchun maktabdagi ilk qadamlardan tortib, kompaniyalarda professional o‘sishgacha bo‘lgan to‘laqonli aylanma kerak. Yechim qanday? Maktablar, oliygohlar, kompaniyalar va davlatni o‘z ichiga oluvchi uzluksiz o‘quv tizimini yo‘lga qo‘yish. Yandex Uzbekistan'da loyihalarni aynan shu qarash asosida – qadamba-qadam, hamkorlar va jamoa bilan birgalikda amalga oshiramiz.

Asosiy ustunligimiz – murabbiylik. Amaliyotchi ekspertlar talabalar bilan ishlashadi, natijalar esa hayratlanarli. Buning qatoriga sun'iy idrok kabi zamonaviy vositalardan foydalanish imkoniyati ham qo‘shilsa, shunchaki koderlarni emas, novatorlarni tayyorlayotgan bo‘lasiz. Turli shaharlarda o‘tkazilayotgan xakatonlarimiz ko‘rsatdiki, maktab o‘quvchilari real muammolarga yechim taklif qiladigan prototiplarni bir kun ichida yaratishga qodir ekan. Informatika o‘qituvchilari uchun esa Pedagogik mahorat milliy instituti bilan birgalikda 2024-yil noyabridan boshlab bepul onlayn kurslarni ishga tushirdik, bu 10 ming nafargacha pedagogni tayyorlash imkonini beradi. Maqsad – butun ekotizim texnologiyalar shiddatiga hamohang tarzda rivojlansin.

USTUNLIK
TECHNOVATION GIRLS
MURABBIYLIK

STEM
ASOSIYSI – XOHISH

Odamlarni toifalarga ajratmayman. Ayollar va erkaklar o‘rtasidagi, poytaxt va viloyatlar o‘rtasidagi tenglik tarafdoriman. Jamoamizda ayollar eng yuqori mansablarni egallashgan. Ammo jamiyat hali buni to‘laqonli anglab yetganicha yo‘q, shu bois qo‘llov zarur. Xalqaro “Technovation Girls” STEM dasturini O‘zbekistonda amalga oshirish uchun homiylik bunga ajoyib misol bo‘la oladi. Jamoamiz mamlakat bo‘ylab minglab qizlarning AT sohasiga kirib kelishlari, o‘zlariga ishonishlari uchun ko‘maklashmoqda. Eng muhimi shu. Viloyatdagi yoshlar poytaxtdagilardan hech bir jabhada kam emas. Shunchaki ularda imkoniyat biroz cheklangan. Istagimiz – xoh Urganchda bo‘lsin, xoh Nukusda, har bir qiz, har bir yigit tushunsin: “Men hech kimdan aslo kam emasman”. Asosiysi – xohish.

Xato – muvaffaqiyatsizlik emas. Bu olg‘a qadam. O‘xshamadimi, qayta urinib ko‘r. Shu tariqa salohiyat o‘sib boradi. Muhimi, qo‘rqmaslik kerak. O‘zimiz ham qachonlardir noldan boshlab startapni yo‘lga qo‘yganmiz. Xaritada harakatlanadigan ko‘rsatkichni ilk bor ko‘rganim yodimda, uni bizning mutaxassis yozgandi. Bu haqiqiy mo‘jiza edi.

Oradan shuncha yil o‘tdi, hozir mamlakat rivojlanayotganiga guvoh bo‘lyapman. AT markaziga aylanish, dunyoga iste’dodlarni yetishtirib berish va o‘z Vatanimizda bunyodkorlik qilish uchun imkoniyatimiz yetarli. Chetga ketgan do‘stlarim bor. Ular xorijda bir-biridan ajoyib loyihalar qilishyapti. Kimdir qaytadi, kimdir sarmoyasini shu yerga tikadi – bularning bari bir butun jarayonning qismi. Ertangi kun mukammal bo‘ladimi, bilmayman. Ammo bir narsaga ishonchim komil: ertangi kun kechagidan oz bo‘lsa-da yaxshilanishi uchun bor imkoniyatimizni ishga solyapmiz. Zero, mohiyat aynan shunda.

Tina IMAMJAN suhbatlashdi.


POZITIV
XATOLARDAN QO‘RQMANG
OPTIMIZM



Bugun sug'urta kompaniyalari nafaqat moliyaviy xavfsizlik kafolati, balki jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikning ham ajralmas qismiga aylanmoqda. O'zbekistondagi sug'urta kompaniyalari ichida GROSS qisqa muddatda o'z mijozlarining ishonchli hamkori sifatida tanildi. Kompaniya marketing samaradorligi bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallab, xalqaro va mahalliy reytinglarda yuqori natijalarga erishdi. Uzbekistan Club' jurnali kompaniya faoliyati bilan yaqindan tanishib, boshqaruv raisi ***Otabek Nazarov*** *bilan suhbatlashdi.*

IZ

MIJOZLARIMIZNI TINGLAYMIZ



OTABEK
NAZAROV

ISHONCHLI

HAMROH, HAMKOR, HAMQADAM

**SUG‘URTA · XAVFSIZLIK
G‘AMXO‘RLIK · IJTIMOIY MAS’ULIYAT
XATARNI KAMAYTIRISH · TABIAT
QAYTA SUG‘URTALASH · O‘ZBEK TILI
MOLIYAVIY INSTRUMENTLAR
YO‘L HARAKATI · MADANIYAT
HAYOT IJTIMOIY LOYIHASI**

Sug‘urta bu – ishonch hujjati

Yillar davomida GROSS'ga rahbarlik qilib kelar ekanman, kunni bir savol bilan yakunlayman: “Bugun biz kimning hayotini yengillashtirishga muvaffaq bo‘ldik, mijozlar muammosini qay darajada bartaraf etdik?” Biz mijozlarimizga faqat xizmat ko‘rsatibgina qolmaymiz, balki tinglaymiz ham. Ular bizning hamkorimiz, har qanday barqaror hamkorlik esa ishonch ustiga quriladi.

Hozirda GROSS dunyoning 79 mamlakatidagi sug‘urta hamkorlari bilan ishonchli aloqalar o‘rnatgan. O‘zbekistonda yillar davomida marketing samaradorligi bo‘yicha birinchi o‘rinni egallab kelyapti. Moliyaviy barqarorlik va ishonchlilikni baholovchi dunyoning yetakchi agentliklaridan biri Fitch Ratings kompaniyamizni B+ reytingiga loyiq topdi. Bu bizning xalqaro miqyosda o‘z majburiyatlarini bajara oladigan, barqaror tuzilishga ega tashkilot sifatidagi darajamiz. Ammo, ta’kidlash kerakki, kompaniyamiz o‘z faoliyatini raqamlar bilan emas, odamlar hayotiga ta’siri bilan o‘lchaydi. Shu yondashuv asosida bir qator ijtimoiy tashabbuslarni hayotga tatbiq etdik. Ulardan biri respublika bo‘ylab yo‘l harakati madaniyatini oshirishga qaratilgan “Xavfsiz harakat” loyihasidir. 2023-yildan buyon kompaniyamiz bu tashabbusni Toshkent shahar IIB, Yoshlar ishlari agentligi, Uzum kompaniyasi va boshqa ijtimoiy mas'ul tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirib kelmoqda.

“Xavfsiz harakat” tashabbusi doirasida GROSS nafaqat vizual ogohlantirishlar orqali haydovchilar xabardorligini oshirdi, balki jamiyatning turli qatlamlariga bevosita ta'sir qiluvchi choralar ishlab chiqdi. LED ekranlardagi yo'l belgilari, bolalar uchun ishlab chiqilgan yorituvchi shoppperlar, qoidabuzarlik qilmagan haydovchilar uchun motivatsion tabriknomalar va imtiyozli polislar – bularning barchasi yo'l harakati madaniyatini shakllantirishga xizmat qildi. Reper Konsta va xonanda Anvar Jo‘rayev ishtirokidagi ijtimoiy klip esa loyihaning emotsional avj nuqtasi bo'lib xizmat qildi. Toshkent xalqaro marafonida esa “Kids Run”, “Nordic Walking” va imkoniyati cheklangan sportchilar uchun alohida startlar tashkil qilindi.

GROSS bugun O‘zbekistonda innovatsion sug‘urta yondashuvlarini hayotga tatbiq etgan, inson salomatligi va xavfsizligini ustuvor maqsadga aylantirgan brend sifatida tanilgan. Polislarga onlayn buyurtma, 24/7 ko‘mak markazi, 160 mamlakatni qamrab oluvchi travel-sug‘urta va 300 klinika hamda 500 dorixonadan iborat tibbiy hamkorlik tarmog‘i bunga dalildir.





HAYOT IJTIMOIY LOYIHASI – JAMIYATDA KO‘P YILLARDAN BERI MAVJUD, AMMO E’TIBORDAN CHETDA QOLAYOTGAN MUAMMOLARGA AMALIY YECHIM

FITCH RATINGS · XAVFSIZ HARAKAT SHOPPERLAR · KIDS RUN NORDIC WALKING · YASHAGIM KELAR MAKTABGA XAVFSIZ YO‘L

Barchasi hayotimizni yaxshilash uchun!

2024-yilda biz GROSS’ning ijtimoiy faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishga qaror qildik. Shu maqsadda HAYOT ijtimoiy loyihasiga asos solindi. Biz bu jamg‘armani jamiyatda ko‘p yillardan beri mavjud, ammo e’tibordan chetda qolayotgan muammolarga amaliy yechim topish uchun yo‘lga qo‘ydik.

Ushbu jamg’arma bir nechta yo’nalishdagi yechimini kutayotgan masalalarni tizimli va uzoq muddatli yondashuvlar asosida hal qilishga bel bog’lagan. Masalan, tabiat hayoti yo‘nalishimizda O‘zbekistonning boy tabiiy merosini saqlashga va uni kelajak avlodlarga yetkazishga harakat qilmoqdamiz. Qo‘riqxonalar, milliy bog‘lar va tabiat yodgorliklarida ekologik infratuzilmani yaratish, salomatlik yo‘laklari, vizit-markazlar, ekoturizmni rivojlantirish kabi tashabbuslar tabiiy boyliklarni muhofaza qilish hamda fuqarolarda ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu borada biz Rossiyadagi “Заповедное посольство” jamg‘armasi bilan hamkorlik qilyapmiz. Ular bilan birgalikda xalqaro ekoturizm dasturlari, ilmiy-tadqiqot loyihalari, ekologik diplomatiya va IT-yechimlar ustida ishlayapmiz.

Madaniy hayot yo‘nalishi orqali biz o‘zbek tili, folklori va milliy madaniyatni raqamli muhitda mustahkamlashga bel bog‘laganmiz. “Hayotiy til” deb nomlangan loyiha doirasida o‘zbek tili uchun lug‘atlar portali, maqol va matallar, ertaklar, iboralar, dialektlar va ularning izohli bazasi yaratilmoqda. Bundan tashqari, sun’iy intellekt asosida til resurslarini rivojlantirish, yangi texnologiyalar yordamida o‘zbek tilini qo‘llab-quvvatlash ham ushbu loyiha maqsadlariga kiradi.

Inson hayoti yo‘nalishida esa biz odamlarning xavfsizligi va sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlaymiz. “Xavfsiz yo‘l – maktabga” tashabbusi orqali chekka hududlarda yashovchi bolalarning maktabga borish yo‘llarini qulay va barqaror qilish ustida ishlamoqdamiz. O‘zbekistonda, ayniqsa, chekka hududlarda minglab bolalar har kuni maktabga borish uchun xavfli yo‘llarni bosib o‘tadi. Ayrim hududlarda daryo ustidagi vaqtinchalik ko‘priklardan, avtomobillar qatnovi zich bo‘lgan magistrallardan o‘tishga majbur. Qishda qor, yozda issiq, ayrim joylarda hatto yo‘lning o‘zi yo‘q. Biz bu muammoni real yechim bilan hal etishga qaror qildik. Hududlar o‘rganilib, maktablarga maxsus avtobuslar ajratilmoqda. Bu avtobuslar bolalarni ertalab uyidan olib, maktabga yetkazadi va darsdan so‘ng sog‘-salomat uylariga qaytaradi.

Umuman olganda, bugun HAYOT ijtimoiy loyihasi – bizning kelajakka ishonchimizning amaldagi ifodasiga aylandi. GROSS esa endilikda oddiy sug‘urta kompaniyasi sifatidagi faoliyati darajasidan jamiyatda o‘z o‘rnini topgan, ijtimoiy mas’uliyatni zimmasiga olgan va hech bir inson taqdiriga befarq bo‘lmagan zamonaviy brendga aylanib ulgurdi.

Iroda NASIMOVA suhbatlashdi.

ADIZ RAJABOV



Bu Mas'uliyat Pallasi

40 YOSHNI QARSHI OLIB

Aktyorlik san'ati o‘ziga xos murakkabliklarga ega, ayniqsa, o‘rta yoshga yetganda. Bu bosqichda u o‘zining professional yo‘lini qayta ko‘rib chiqadi: yangi obrazlarni yaratish ehtiyoji yuzaga keladi. O‘rta yoshdagi aktyor uchun bu davr ko‘pincha ichki beqarorlik va tashqi o‘zgarishlar bilan birga kechadi. Murakkabliklar bilan yuzlashish har bir ijodkorni o‘z maqsadlari, imkoniyatlari va kelajagi haqida qayta o‘ylashga majbur qiladi. O‘rta yosh davri aktyor uchun nafaqat inqiroz, balki kamolot va rivojlanish bosqichi sifatida ham qaralishi mumkin. Uzbekistan's club jurnali xalq sevgan aktyor Adiz Rajabovning bu boradagi hayotiy va ijodiy mulohazalari, xulosalari bilan qiziqdi.



hayolni qayta ko'rib chiqish davri

– O‘rta yoshga yaqinlashar ekansiz, nimalarni o‘zingizda kuzatdingiz? Nimalarni his qilyapsiz? Bu qanchalik muhim? Yoki bu siz va sizning yoshingizdagilar uchun oddiy hayot bosqichimi?

– O‘rta yoshga yaqinlashganda vaqt qayta tiklanmaydigan resurs ekanligini to‘liq anglab yetish boshlanadi. Men hayotimga nisbatan boshqacha qarashni his qilyapman. Yoshlikdagi shoshqaloqlik, dag‘allik o‘rniga har bir harakatim va munosabatlarimni chuqurroq mulohaza qilish ehtiyoji paydo bo‘ldi. Erishganlarimga nazar solib, ular ichki missiyamga va boshqalarga qanchalik foydali bo‘lganini o‘ylab ko‘ryapman. Ko‘pgina tengdoshlarimda ham bu eski qadriyatlarni qayta baholash va yangi ma’no izlash davriga aylandi. Bu oddiy bosqich emas, balki katta mas’uliyat talab qiladigan yangi qarorlar qabul qilish vaqti. O‘rta yosh – o‘ziga, vaqtiga va yaqinlariga nisbatan yanada mas’uliyatli bo‘lish davri.

– Erkak kishi 40 yoshga to‘lgandan keyin uyog‘iga vaqt juda tez o‘tadi, deyishadi. Odamda ko‘p ishga ulgurmay qolish hissi paydo bo‘ladimi? Bunda qanday yo‘l tutish kerak?

– Ha, bu his haqiqatan ham paydo bo‘ladi. Inson hayotiga nazar tashlab, ko‘plab maqsadlariga yetib ulgurmaganini anglaydi. Bu esa xavotir va o‘tkazib yuborilgan imkoniyatlar uchun afsusni tug‘diradi. Ammo bu fikrlarni yengish juda muhim. Bunday vaziyatda bugunga e’tibor qaratish va maqsadlarni qayta ko‘rib chiqish lozim. Nimalarga ulgurmaganingdan afsuslanish o‘rniga hozir nima qilishim mumkin, deb savol berish kerak. Vaqt tez o‘tyapti, lekin shu bilan birga his-tuyg‘ularing yanada aniq, teran bo‘lib shakllanyapti.

Bu donolik yoshi, sen endi o‘zingni turli ishlarga chalg‘itmaysan, balki eng muhimlariga diqqat qaratasan. Ko‘p narsalarga ulgurmaganlik hissi doim bo‘lishi mumkin, lekin bu to‘xtab qolishga sabab bo‘lmasligi, aksincha bu har bir lahzani samarali o‘tkazish uchun motivatsiya bo‘lishi kerak.



bugun energiya ham bor

– Aktyorlarda o‘rta yosh inqirozi qanday kechadi? Ayni yoshda aktyor na ota, na talaba, na yosh yigit, na qariya-ku... Kino va teatrda ishlayotgan professionallar xayollaridan shu davrda nimalar o‘tadi?

– Aktyor uchun o‘rta yosh noyob bosqich, chunki sen turli rollarning chegarasida turibsan. Endi yosh yigitlar rolini o‘ynolmaysan va hali qariyalar obraziga ham tayyor emassan. Bu albatta o‘ziga ishonchsizlik hissini keltirib chiqarishi mumkin: men endi qanday aktyorman? Ammo aynan shu davrda rollarni chuqur talqin qilish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Ya’ni bu pallada ko‘pchilik o‘z personajlarini qanchalik chuqur tushunishi haqida o‘ylay boshlaydi. Bu esa nafaqat sahnadagi rollaringni, balki hayotdagi o‘rningni ham qayta ko‘rib chiqish uchun undaydi. Menimcha, bu yoshda ijodiy faoliyatga yangicha nazar bilan qarash, o‘zini ifoda etishning boshqa yo‘llarini izlash zarurati tug‘iladi. Bu imkoniyatdan qo‘rqmay foydalanish kerak. Faqat aktyorlikda emas, rejissurada, ssenariy yozishda yoki ta’limda o‘zini topish mumkin.

– O‘rta yosh va umuman hayotning turli bosqichlari to‘g‘risida yana nimalarni ayta olasiz?

– Hayotning har bir bosqichi bu Yaratgan tomondan berilgan ne’mat. Uni o‘sha qiyinchilig-u saboqlari bilan qabul qilishing kerak! O‘rta yosh bu – o‘z qadriyatlaring va kuchingni to‘liq anglaydigan vaqt. Bugun yangi yo‘nalishlar uchun energiya ham bor, ammo uni behafsala sarflamaslik uchun donolik ham bor. Hayot bosqichlari bu – yil fasllari kabi, har birining o‘z go‘zalligi bor. Kuz ayrimlar uchun yakundek tuyulishi mumkin, ammo aslida u hosil mavsumi, kamolotning ifodasi va yangi imkoniyatlarga tayyorgarlik bosqichidir.

Iroda NASIMOVA suhbatlashdi.

PIDJAK
MANDELLI
VODOLAZKA
GRAN SASSO
SHIM
BERWICH
KO‘ZOYNAK
ZILLI
LOFER
SANTONI

@INTERIORS_49

o'rta yosh inqiroz emas

AYOL



UMUMIY KO'RINISH
RICK OWENS

NIGOH:

DORA OTAJONOVA “TEODORA GOODS” ASOSCHISI, “DALATEK” AGROPLATFORMASI HAMMUASSISI. O‘ZBEKISTONDAGI QISHLOQ XO‘JALIGI HOLATIGA NAZAR TASHLASH MAQSADIDA SOHANING ILG‘OR, KAM SONLI AYOL MUTAXASSISLARIDAN BIRI BO‘LMISH DORANING QO‘LIGA TAHLIL KALEYDOSKOPINI TUTQAZDIK. KO‘RAYLIK-CHI, BU KALEYDOSKOP BIZGA QANDAY TASVIRLARNI TAQDIM ETARKIN?!

O‘ZBEKISTON AGRO SOHASIDAGI ISLOHOTLARGA NAZAR

200 KILOGRAMMDAN 20 TONNAGACHA

O‘zbekistonda tug‘ilib, o‘sib, 19 yoshimda “qaydasan, Malayziya” deb yo‘lga otlandim. Malayziyadagi hayotimning beshinchi yilida “tang ahvoldagi talabalar” turmushini yaxshilash uchun do‘stlarim bilan biznes boshlashga qaror qildik. Yong‘oq va quruq mevalar olib kela boshladik. 200–300 kilogrammli partiyalarni kichik do‘konchalarga sotish mening zimmamga tushdi.

2017-yilda vizani yangilash maqsadida qisqa muddatga O‘zbekistonga qaytdim-u vaqtincha ishlab turish uchun eksport kompaniyasiga joylashdim. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini import qilish istagi bildirilgan 200 dan ziyod, hatto ochilmagan elektron xabarlarni ko‘rganimda shokka tushdim. Yana ozmuncha emas, qo‘sha-qo‘sha yuk kemasiga ortgulik miqdorda mahsulot so‘ralgandi. Dora, bu sening imkoniyating, dedim o‘zimga. Malayziyada 200–300 kiloga xaridor topish amrimahol bo‘lsa, O‘zbekistonda xorijiy kompaniyalar ayni mahsulotni kamida 20 tonnalab sotib olish uchun navbat kutayotgandi. Bu kompaniyada 9 oy ishlab, Malayziyaga qaytish haqida unutayozdim hisob.

TO‘RT OY?! YO‘Q, IKKI HAFTA!

Biznesda shunaqa: hozirgi darajangdan o‘sasan, va tabiiyki, yangi marralarni zabt etishga ehtiyoj sezasan. Biroz vaqtdan keyin yollanma ishchi sifatida shaxsiy maqsad va vazifalarim kompaniya falsafasiga mos kelmay qoldi. Va ishdan ketib, o‘z kompaniyamni ro‘yxatdan o‘tkazdim. Yangi biznesga tikish uchun sarmoyam yo‘q edi. Hammasini noldan boshladim, asosiy vazifa – xarajatlarni minimallashtirish edi. Masalan, yarim yilgacha Shevchenko ko‘chasidagi qahvaxona men uchun ofis vazifasini bajargan.

Biznes strategiya ustida ishlarkanman, ilk buyurtmani olish uchun o‘zimga to‘rt oy muhlat belgiladim. Ammo amalda vaziyat ancha quvonarli bo‘ldi – atigi ikki haftadan keyin dastlabki buyurtma qo‘limda edi. Va hammasi jadal ilgarilay boshladi.

O‘zbekiston yong‘oq va quruq mevalarining mazasi mutlaqo o‘zgacha. Ijobiy ma’noda. Ammo ularni tayyorlash jarayoni maqtagulik emas. Afsuski, bu istiqbolli yo‘nalishda salohiyatimizdan yetarlicha foydalana olmayapmiz. Fermer va ishlab chiqaruvchilar tayyorlov jarayonini texnologik jihatdan qanday to‘g‘ri amalga oshirishni bilmaydi, shuning uchun “qo‘ldan kelgancha” qabilida ish tutadi. Bu esa tovarning qiymati va saqlash muddatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Bilim va ko‘nikma yetishmovchiligi mamlakatda mavjud bo‘lgan yuqori salohiyatni samarali yuzaga chiqarishga to‘sqinlik qiladi.

SALOHIYATIMIZDAN YETARLICHA FOYDALANMAYAPMIZ



UMUMIY KO‘RINISH
RICK OWENS

AYOL TADBIRKOR BO'LISH QIYINMI? QIYIN BO'LGANDA QANDOQ!





Tekin reklama

Ayol tadbirkor bo‘lish qiyinmi? Qiyin bo‘lganda qandoq! Qizig‘i, bu erkak uchun ham, ayol uchun ham birdek qiyin. Tadbirkorlik faoliyatim haqida gapiradigan bo‘lsak, kichik qiyinchiliklar faqat va faqat odamlarning munosabati bilan bog‘liq. Masalan, fermer ilk uchrashuvda buyurtma tafsilotlarini men bilan emas, haydovchi bilan muhokama qilib ketadi. Aslida buni qiyinchilik deb ham bo‘lmaydi. Ijobiy jihatlari yetarlicha. Nazarimda, aynan ayol bo‘lganim uchun yutuqlarim mediamakonda ko‘proq nazarga tushadi. Bugun mutaxassis sifatida men haqimda ko‘plab intervyu, maqola va chiqishlar orqali tor doiralarda ko‘pchilik bilishiga ishonchim komil. Faoliyatimiz BBC va CNN efirlarida, MDH hududidagi internet jurnallarda, O‘zbekistondagi o‘nlab yirik platformalarda yoritilgan. Qizig‘i, hech qachon bu materiallar uchun chiqim qilmaganman. Tekin reklamaning ajoyib samarasi. Mening o‘rnimda erkak kishi bo‘lganida u haqida ham ayni qiziqish bilan gapirishlari ehtimoldan uzoq bo‘lardi.

BILIM, KO‘NIKMA, XORIJ TAJRIBASI, MEDIAMAKON, TRENING, MALAKA OSHIRISH, PROGRESSIV TEXNOLOGIYALAR

Takliflar

Mendan so‘rashsa, avvalo, barcha turdagi fermerlar va xo‘jaliklar uchun tizimli o‘qitishni taklif qilgan bo‘lardim. Bilim va ko‘nikma darajasini uzluksiz rivojlantirib borish kerak. Mediamakonni to‘yintirish, ko‘proq ma’lumot va o‘quv materiallarini yaratish lozim. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlov berish bilan bog‘liq barcha masalalarda ma’lumot olish imkoniyatini taqdim etadigan mobil ilovalar ishlab chiqish, ta’limiy ko‘rsatuvlarni tayyorlashga sarmoya kiritish zarur.

Ikkinchidan, har bir tovar uchun yo‘l xaritasi ishlab chiqqan bo‘lardim. Masalan, anjir mevasi juda nozik, saqlash muddati ham juda qisqa. Shuning uchun bu mevani yangi pishgan paytida eksport qilish qiyin, bunda xatarlar ko‘p. Bunday vaziyatda, masalan, eng maqbul yo‘l – qishloq xo‘jaligi mahsulotiga qayta ishlov berish. Fikrimcha, xoh pomidor yoki limon, xoh qovun yoki yong‘oq bo‘lsin, har bir tovar yo‘l xaritasiga ega bo‘lishi, unda ishlab chiqarish va sotuv strategiyasi, tayyorlov uchun mavjud va belgilangan texnologiyalar aks ettirilishi kerak. Toki har kim kerakli ma’lumot bilan tanishib, amalda qo‘llash imkoniga ega bo‘lsin.

Murad NASIROV suhbatlashdi.





DUNYO QOZONIDA

PISHGAN PALOVMAN...

“AMMO CHARX URARKAN BOSHINGDA OLAM
BIR JOYDA AYLANIB QOLMAYDI ODAM”



Amerikaga tasodifan borib qolmadim. Bu – repning vatani, bu janr aynan shu yerda tug‘ilgan. Rep va hip-hop kuylaydigan odamlarning hammasi Amerikaga borishni umrida bir marta bo‘lsayam orzu qilgan. Xuddi ushu ustalari Shaolindagi monastirga bir borib ko‘rishni orzu qilganlaridek. Bir necha marta AQSHda qisqa muddatli safarlarda bo‘ldim, lekin bir kuni u yerda bir yilga qolsam nima bo‘ladi deb o‘yladim, ha, faqat bir yil, undan oshiq emas. Orzularga ergashib, aniq reja tuzmasdan “bor-e tavakkal” dedim va ketdim. Florida, Nyu-York, Pensilvaniyadagi do‘stlarimni yo‘qladim. Oxiri Chikagoda joylashishga qaror qildim. Tanishlarim yordamida ofis ishiga joylashdim, yuk tashish kompaniyasida ishlay boshladim. Bir yil ishlayman va qaytaman deb o‘ylagandim.

Amerikada barchasi deyarli men kutgandek edi. Agar tinmay mehnat qilsangiz, aqlingizni ishlatsangiz, nimagadir erishish mumkin. Bu “amerikacha orzu” deb ataladi – istagan odamda rivojlanish imkoniyati bor. Ko‘p do‘stlarim kutganidan ko‘prog‘iga erishdi. Ayrimlari o‘solmadi. Aslida butun dunyoda shu – intilsang, ustingda ishlasang, o‘rningni topasan. Odam o‘ziga ishonishi, tinimsiz mehnat qilaverishi kerak.

PALTO
TOM FORD
FUTBOLKA,
SHIM
VALENTINO
TUFLI
SANTONI

“HO‘KIZDEK ISHLAYMAN, MOLDEK ISHLAYMAN, BIR PARCHA NONIMNI HALOL TISHLAYMAN”

“GARCHI TAQDIRIMGA AYQASHGAN JAHON...”

Safarim men uchun ko‘proq ma’naviy ahamiyatga ega bo‘ldi. Qo‘shiq aytishni rejalashtirmagan edim, san’atkor sifatida bormagandim. Men yangi hayot boshlash uchun sarguzasht izladim. O‘tmishdagi zohidlarni bilasiz-ku, men ham shunday edim. Hayotni yangidan boshlash xohishi bilan bordim. Menga hamma narsa yoqdi: yangi do‘stlar, yangi hayot, yangi muammolar va quvonchlar, go‘yo o‘z hayotimda emas, kinofilm ichida yashayotgandek edim...

KURTKA, FUTBOLKA, JINSI
OFF-WHITE

BOTINKA
SAINT LAURENT

“YURTNI SOG‘INGANDA OG‘RIMASMI JON?”



Eng kutilmagan qiyinchilik COVID pandemiyasi bo‘ldi. Uyga qaytishni rejalashtirayotgan edim, lekin dunyoni qamrab olgan virus aviaqatnovlarni to‘xtatdi. Chikagoda kichkina kvartirada, o‘zim bilan yolg‘iz qoldim. Men uchun eng chidab bo‘lmas narsa farzandlarimdan ayrolik, ularni bag‘rimga bosish, erkalash imkoniyning yo‘qligi edi. Yolg‘izlikdan aziyat chekdim. Buni ko‘pchilik boshdan o‘tkazgan, shuning uchun tafsilotlariga to‘xtalmayman. Ammo “bizni o‘ldirmaydigan narsa bizni kuchliroq qiladi” deganlaridek, kvartiramga qamalganimda aqldan ozmaslik uchun yangi albom ustida ishlay boshladim. Bu albom avtomobillar, pul va ayollar haqida emas edi. Birdan hammasi ikkinchi darajaga o‘tgandi. His-tuyg‘ular kuchayib, albom shu paytgacha Toshkentda yozganlarimdan butunlay boshqacha bo‘lib chiqdi. O‘zim, yaqinlarim, odatiy tuyulgan tushunchalar haqida o‘ylashga vaqtim bo‘ldi. Hozir yangi albomimning nega oldingilarga qaraganda biroz og‘irroq ekanligini tushuntira olmayman – karantin ta’sirimi yoki ulg‘ayishning yangi bosqichi? Faqat bir narsani bilaman – hamma narsa bir kun tugaydi. Cheksiz dard chekib o‘tirishim mumkin. Lekin bundan saboq olishim ham mumkin, aytishganidek, qayg‘u bu – tanlov. Xohla dard chek, xohla tuzal. Barcha qiyinchiliklardan go‘zal albom bilan chiqqanim eng yaxshi tanlovim bo‘ldi.

Menga Vatan hech qachon yuksak, uzoq tushuncha bo‘lib tuyulmagan. Qanchalik balandparvoz eshitilmasin, Vatan doim men bilan birga. Bu haqida bu yerda o‘qigandan ko‘ra, yangi albomimdagi “O‘zbekiston jism-u jon aro” qo‘shig‘imni tinglasangiz, nimani nazarda tutganimni tushunib olasiz.

TILLANISO suhbatlashdi.



“MEN DEYMAN: ACHINMANG, EY DO‘ST-U YORO, O‘ZBEKISTON, AXIR, JISM-U JON ARO!”



YOL G'ONNI

KECHIRMAYDIGAN PERFEKSIONIST

Uning tili "zahar". Hech bir muammo, hech bir og'riqli masala yo'qki, bu zahardan benasib qolgan bo'lsa. U yozgan, gapirgan tanqid-u kulgi aralash achchiq haqiqatlarning ortida esa yaxshiroq, yashilroq, farovonroq Vatanni ko'rish istagi yotadi. Ha, taxminingiz to'g'ri, so'z o'zbek mediasining bosh "Troll"i – Umid G'afurov haqida.

Shaxsiyatimi, xo'sh, shaxsiyatiga kelsak..... Bu yog'ini uning o'zidan eshita qolamiz.

BOLALIK

Bolalikda rassom bo'lishni orzu qilganman. Atrofdagilar fikrimdan qaytarishgan, rassom bo'lib qayoqqa borarding-u, qancha pul toparding deb. Hozirgi faoliyatim ham ijod bilan bog'liq bo'lsa-da, rassomlik orzusi ushalmay qoldi, o'rganay desam, vaqt qani endi? Kasb tanlash arafasida turganlarga maslahatim: orzularingizga sodiq bo'ling, aks holda armon bilan yashaysiz.

Bolaligimda o'qigan Mark Tvenning "Tom Soyerning sarguzashtlari" kitobi menda kuchli taassurot qoldirgan. O'shanda asarning mag'zini yaxshi chaqa olmagandirman. Ammo kitobda hayotning mazmuni haqida juda chuqur faylasufona fikrlar bor.

BOYO'G'LINING FINJONI

Qahva yoki choy? Men uchun ikkisining ham o'z o'rni bor. Kun, tabiiyki, qahvadan boshlanadi. Sutka davomida esa choyni ko'proq tanlayman. Foydalilik nuqtayi nazaridan choy ustunroq tursa-da, men uchun bu kayfiyat masalasi.

Erta tongda uyg'ona oladiganlarga havas qilaman. Harchand urinmay, buni o'zim uchun odat qila olmadim. Men tun kishisiman, allamahalda yaxshiroq ijod qilaman. Hammaning ham o'z mahsuldorlik soatlari bor.

Hozir farzandli bo'lganim uchun barvaqt uyg'onadigan kunlarim ham bo'ladi. Lekin tarki odat amrimahol – baribir "boyo'g'li" bo'lib qolaveraman.

SAYOHAT, O, SAYOHAT

Men uchun mukammal kun – oilam bilan yangi manzilda o'tkazilgani. Maza qilib toza havodan to'yib-to'yib nafas olsang, muammolarni o'ylamay vaqt o'tkazsang. Qaysi davlat, qaysi maskan ekanligi esa muhim emas.

Tabiat qo'ynida vaqt o'tkazish jon-u dilim. Xoh dengiz bo'lsin, xoh tog'. Shunday onlarda hech narsa haqida o'ylamaslikka harakat qilaman. Kundalik hayotda shundoq ham fikr-u yodimiz doim band. Ba'zida xayollarga dam berish kerak.



NOQULAY XISLAT

Faoliyatimda kimdir ishonchimni oqlamasa, xayrlashaman. Avvaliga imkon beraman, albatta. Ammo holat takrorlandimi, demak, dunyoqarashimiz, yo‘llarimiz boshqa-boshqa. Janjal, gina-arazdan, adovat saqlashdan foyda yo‘q. Bu yechim bo‘la olmaydi. Ishonchingizga munosib bo‘la olmaganlarni shunchaki hayotingizdan chiqarib tashlash kerak.

Perfeksionistman. Ilgari bu juda muhim, har kimda bo‘lishi zarur xislat deb o‘ylardim. Hozir fikrim o‘zgargan. Bu xislat biznesda xalal beradi. Biznes uchun tavakkal va tezlik muhim. Perfeksionist esa bunday xususiyatlarni namoyish qilishi qiyin. Shuning uchun ba’zida ichimdagi perfeksionistni “o‘chirib turishga” harakat qilaman.

BURILISH

Italiyada tahsil olgan yillarim hayotimda katta o‘zgarish yasagan. Bu mamlakatning ob-havosi, odamlari menga katta ta’sir qilgan. Ularning hayotga bo‘lgan munosabati, zavqlanib yashashi, bizdan farqli o‘laroq moddiyatdan qanchalik yiroqligi hayron qoldirgan. Italyanlar har bir lahzani his qilib, lazzatlanib yashashadi. Hech shoshilganlarini ko‘rmaysiz, bu ba’zida pand berishi mumkin, lekin ular chin ma’noda yashaydi. Boy bo‘lsin, o‘rtahol bo‘lsin, bari hayotsevar.

ENG KERAKLISI...

Har bir inson uchun hayotda muhim fazilat bu – uddaburonlik. Gohida atrofdagilarga yoqmasligi mumkin, ammo aynan uddaburon kishigina o‘z maqsadlariga erisha oladi.

Odamlarda men eng qadrlaydigan sifatlar – insoniylik va samimiyat. Yolg‘onga esa umuman toqatim yo‘q.

MEHR

Mehr
haqida so‘z
borganda avvalo
ota-onam haqida
o‘ylayman. Ammo bolalikda
ular oldimda ko‘p bo‘lishmagan,
olis yurtda mehnat qilishgan. Buxo-
roda bobom va buvimning qaramog‘ida
o‘sdim. Eng kenja va eng suyukli nevara edim.
Buvimdan hatto ovqat pishirishni o‘rganganman,
ko‘zlari yaxshi ko‘rmasdi, nima qilishni aytib turardilar,
men bajarardim. Shu insonlardan kezi kelganda dakki ham
yeganman, ota-onamchalik mehr ham ko‘rganman.

Men uchun eng yaxshi ota-ona bu – farzandining xohish-istaklarini hurmat qiladigan, erta yoshidanoq uni shaxs sifatida ko‘radigan, ushalmagan orzularini bolasining bo‘yniga ilib qo‘ymaydigan ota-ona.

O‘ZGALAR

Boshqalarning fikri men uchun muhim emas, desam aldagan bo‘laman. Inson borki, atrofdagilarning o‘zi haqidagi fikri bilan qiziqadi. Lekin bu ularga yoqish kerak, ularning fikri bilan yashash kerak, degani emas. Bu shunchaki bir o‘lchov. Masalan, sahifamga bir xabar joylasam, qo‘llab-quvvatlovchilardan ko‘ra qarshi fikr bildirganlar ko‘proq bo‘lsa, demak, o‘z ustimda ishlashim kerak. Qayerdadir xato qilganman, xatolar esa me’yoriy holat.

Xabarlarimga qoldirilgan izohlarni o‘qib chiqishga harakat qilaman. Maqsad – postning mohiyati qanchalik anglangani haqida tasavvur hosil qilish. Lekin doim o‘qishga vaqt ham, sabr ham yetmaydi. Ilgari har bir izohni ko‘nglimga yaqin olardim. Hozir tushundimki, dunyoda 8 mlrd inson bo‘lsa, 8 mlrd xil fikr bor. Hammaga yoqishning iloji yo‘q. Har kimning qarichiga tushaman desangiz, umr yetmaydi-ku axir.

ILHOM TAQDIR

Taqdirga gohida ishongim kelmaydi, ba’zida esa ishonishdan bo‘lak choram qolmaydi. Menimcha, inson taqdirini muayyan darajada o‘zi yarata oladi. Hammasini taqdirga havola qilib, qo‘l qovushtirib o‘tirmasdan, harakat qilish kerak. Optimistman, shuning uchun har narsaga taqdirni ro‘kach qilish hayotdagi tamoyillarimga to‘g‘ri kelmaydi.

Men istalgan odamdan ilhom olishim mumkin. Ota-onamdan tortib begona odamgacha. Stiv Jobs-u shaxmatchi chempionlarimizgacha. Hatto tirikchilik tashvishida yurgan oddiy insonlar ham kezi kelganda ilhom bag‘ishlaydi. Mukammal odam yo‘q, mukammallikka intilishning o‘zi xato.

UMR

Men sotib olishni istagan, lekin imkoni bo‘lmagan narsa bu – vaqt. Yosh o‘tgani sari vaqt tobora shiddatliroq o‘tayotgandek, sutkada 24 emas, 14–15 soat yashayotgandekman xuddi. Rejalashtirilgan ishlarga ulgurish qiyin. Hozir 33 yoshdaman. Ilgari bu yosh juda uzoq manzildek tuyulardi...

Vaqt eng qimmatli narsa, uni sotib olib bo‘lmaydi. Hech narsa bilan baholab bo‘lmaydigan yana bir boylik – sog‘lik. Bu ham qaysidir ma’noda vaqt bilan bog‘liq, vaqt o‘tgani sayin sog‘likdagi muammolar ham o‘zini bilintira boshlaydi.

Tina IMAMJAN suhbatlashdi.





O‘ZBEKISTONLIK INFLYUENSER LAR

Uzbekistan's MAGAZINE club

JURNALI AN’ANAGA KO‘RA E’LON QILAYOTGAN TURKUM REYTING VA TOP RO‘YXATLARDAN BU GALGISI KREATIV KONTENT MUALLIFLARI, BOSHQACHA TA’RIF BILAN AYTGANDA, INFLYUENSERLARGA BAG‘ISHLANADI.

O‘ZBEKISTONNING YETAKCHI INFLYUENSERLARI YANGI AVLODGA TUSHUNARLI TIL VA USLUBDA YO‘L KO‘RSATMOQDA.
HAQIQIY FIKR YETAKCHILARI NAFAQAT AUDITORIYANI O‘ZIGA JALB ETADI, BALKI MUHIM MAVZULARNI KO‘TARIB CHIQIB, YECHIMLAR TAKLIF QILADI, NAMUNA KO‘RSATADI.

KEYINGI SAHIFALARDA KO‘RADIGANINGIZ KREATORLAR, TAHRIRIYATIMIZ VERSIYASIGA KO‘RA, TURLI YO‘NALISHLARDAGI PESHQADAMLARDIR.

TANLASH JARAYONIDA BIZ FOYDALILIK, QIZIQARLILIK, AUDITORIYA SONI VA FAOLLIGI KABI MEZONLARGA TAYANDIK.





| @ZIYOKHONOV |

| IJTIMOIY |



XUSNORA SHODIYEVA



| @KHUSNORIK |

| SAYOHAT |

A’ZAM QAHRAMONIY

| @TEACHERAZAM |

| TA’LIM |



S A’ D U L L A A B D U L L A Y E V



| @TEXNOPLOV |

| TEXNOLOGIYALAR |



NODIRA ABDURAHMONOVA



| @NADI_UZ |

| MODA |



S H A H Z O D B A H O D I R O V



| @THOMPSONINSIGHTS |

| BIZNES |

MO‘TABAR XUSHVAQTOVA

SAIDAZIZ A'ZAMOV

QURBON QILAM

Quyosh ko‘k sahniga ko‘tarilib, havo ochilgan. Qorlar eriy boshlagan. Ustma-ust yoqqani uchun yo‘l chetlarida to‘plangan qor hali tamom erimagan, odam yo mashina o‘tgan yo‘llarning qorasi ko‘rinib qolgan. Podyezddan chiqaverishdagi yo‘lak yuzi ham biroz ochilibdi. Go‘yo yaltiroq oq qog‘ozga bulut surati chizilib, zang aralash qoraga bo‘yalgandek. Qo‘shni podyezd oldi ham shunday. E, ha, necha haftaki uyulib yotgan chiqindi xaltalarini olib ketishayotgan ekan.

Bruklinning Midvud mahallasidagi g‘ishtin, qo‘ng‘ir binolar devorlariga ham kun kulib boqqan. Ammo bunda yashovchilar o‘sha-o‘sha tussiz: egnida kul-rang-qoramtir kiyim, oshiqqan, qo‘lidagi telefonidan har-har zamonda ko‘z uzib yo‘lga termulib qo‘yadi va zumda nigohlarini telefonga qayta qadaydi, simli quloqchin taqqanlari boshini sarak-sarak qilib boradi.

Ko‘chaning kunlik ahvoloti shu, men sizga aytsam. Uyni shu bahona shamollatib olaman. Bir sovuq yugursa, isitish amri mahol. Derazani odatdagidek ichkariga qattiq tortdim-da, romlariga mixlab qoqilgan qirmizi choyshabning bir chetini tirqishga joylab, so‘ng dastakni burab mahkamladim. Bu uyga endi-endi ko‘chib kelganimda xonamning kengligi yoqdi-yu, xonani nos hidi tutib ketgani ta’bni xira qilardi. Ha, Amerikada nos. Mendan oldin bu uyda yashagan akamiz nos chekmasa xumori tutarkanmi, lab-lunjidagini polga sarchatib tupurib, so‘ng uyquga ketarkan. Uyga ko‘chib kirgach, 5-6 soatlab derazani ochib qo‘yib, necha kun deganda hiddan arang qutuldim. Biroq xona muzlab, keyin uncha-munchaga isimasligidan qiynaldim.

Shahar shovqini qiyilib, uy ichidagi fayzli baqir-chaqir quloqni tutdi. “Bacheem! Inja biyo!..” Samarqandlik oila bilan ikki haftadan oshiq yashab, tojikchani ham sal tushunib qoldim. Faqat eng ko‘p qaytariladigan so‘zlarni xolos: “chiroqni o‘chir”, “eshikni yop”, “idishlarni joyla”, “tezroq qayt”, “tushundingmi...” Menga eng yoqqani – “ziyod gap nazan” bo‘ldi, ya’ni ko‘p gapirma. Dasturxon ustida beixtiyor menga ham tojikchalab “oling” deyishsa, fahmlab ketadigan bo‘ldim.





– Saidjo-o-on! Keling, issiqqina non yeng.
Oshxonaga o‘taman. Non isi dimoqqa uriladi.
– Ooo, zo‘r-ku. Qarasam, do‘kondan non olib yemas ekansizlar-a, kennayi?
– Shunnay. Non yopib qo‘ysam, haftaga yetadi. Ko‘chadan olsak qimmat! Keling, o‘tiring, o‘tiring.

Kennayi biri o‘ndan oshgan, ikkinchisi o‘n sakkizga yetib qolgan ikki qorako‘z dilbandlarini men bahona stullarga chorladi. Kenjatoyi qo‘lini siltab-siltab o‘zicha rep xirgoyi qiladi. To‘ng‘ichi telefondan ko‘zini uzmaydi, o‘zi aytgandek, ”sokker” o‘ynaydi. Men ham o‘z ishimga unnayman, o‘qishga tutinaman. Bugun dam olish kunim, axir.

O‘spirinlar rep, sokkerdan charchagach, avtomobil va internetdagi memlar haqida suhbatni qizitdi. Har ikki gapning birida “bruh” deb qo‘yadi. Qoyil qolsa ham, hafsalasi tushsa ham, jahli chiqsa ham – “bruh”.

“Ikkita katta pitsa bilan Ginger Ale buyurtma qilsak, zo‘r ketardi-a?” deb ularning gapini bo‘ldim. “Facts!” – dedi Sheroz taklifimni ma’qullab. “Xonaga shuncha avqot... bularni kim yeydi?” – dedi kenjatoy Amir mushtini tugib, onasidan baloga qolishimiz mumkinligiga ishora qilib.

Amir maktabda va do‘stlari orasida inglizcha, uyda tojikcha so‘zlashadi, shuning ta’sirida bo‘lsa kerak, o‘zbekchasi og‘zidan na inglizcha, na tojikcha talaffuzga yaqin bir aftoda sirg‘alib chiqadi.

Xullas, bolalar bilan ota-onasi ishda mahali biror kun zanjabilli ichimlik bilan pitsaxo‘rlik qilishga kelishib oldik. Bu xonadonda ortiqcha xarajat, bo‘lib ham, ko‘chadan ovqatlanishga toqat qilinmaydi. Bolalar xona-xonasiga chiqib ketdi, men esa shu yerda – oshxonada qolib, mutolaada davom etdim.

Xonadan kennayining tashvishli ovozi eshitildi. Uzoqdan tushunarsiz yangragan ovoz yonimga kelguncha balandlab borar, suhbat ro‘paramdagi stulga keliboq uzilishi ko‘rinib turardi. “Xo‘sh, Nafis, xo‘sh. Salomat bosh”, deb xayrlashib oldi hamki, kennayi chuqur nafas olib menga yuzlandi.

– Saidjo-o-on, siz telefonni yaxshi tushunasiz-ku. Shu menga bir odam SMS yozyapti, shuning kimligini topib bilasizmi?
– Kim yozyapti? Nima bo‘lyapti?
– Telegramdan bittasi yozyapti-da... Eringizga ko‘z-quloq bo‘ling, men sizni o‘ylab aytyapman, deydi. “Ering kimdir bilan yuradi”, deyapti chog‘i.
– Tavba, qayerdan topibdi bu gapni?
– Hozir Nafisa bilan gaplashsam agar, moshenniklar deyapti.
– Ha, shunaqa bo‘lishi mumkin. Hozir ko‘payib ketgan. Menimcha, Telegramdagi guruhdan olgan-da kontaktingizni.

– Eh, buni qarang, erim bo‘lmasa men nima qilaman?!

Shu damda kichkintoy Amir oshxona eshigini yugurib kesib o‘tarkan, “Inja biyo, bachem” deb yoniga imladi kennayi. So‘ng unga tojikchalab tashvishini tushuntira ketdi. “Dadangsiz nima qilamiz?” degandek ma’noni anglab olgandek bo‘laman. Buni ham bola Amirning inglizcha aralash javobidan tushunaman:

– Biyi, in “scam” ast. Parvo nakuned.
– Scam? Scami chist?

Kennayi dod solib, to‘ng‘ichini ham chaqiradi. Telefonga kelgan boyagi xabarni ko‘rsatib, alami tarqamaydi. Qaytanga, battar alanga oladi. Endi men ham xavotirga tushdim: “Nahotki Farhod aka yurib ketgan bo‘lsa”.

Kennayi qariyalarga g‘amxo‘rlik qiladi. Eri Farhod aka ham. Ular Amerikada “home attendant” (uy xizmatchisi) deb ataladigan bu kasbni “xomaten” deb zabonlariga moslashtirib olgan. Farhod aka xizmatdan chiqib, Toyota Camry mashinasida kira qiladi. Inglizchada “yes” va “no”dan boshqa aytarli hech vaqoni bilmaydigan akamizga Uber taksi xizmati texnologiyasi juda qo‘l keladi.

To‘g‘risi, umrimda bunday qattiq mehnat qiladigan odamlarni uchratmaganman. Er-xotin haftasiga oltmish-yetmish soatlab ishlaydi. Bir gal Farhod aka uch kun ko‘rinmadi – ikkita ishda ishlasangiz-ku, uyga kelishga ham vaqt topish qiyin. To‘rtinchi kuni kennayim “вот, мой муж молодец, нет слов” deb qarsak chalib kutib oldi.

BRUKLIN, MIDVUD, QO‘LBOLA NON, DARRO MAHKAM KUNED, ZIYOD GAP NAZAN, GINGER ALE, PITSA, BRUH.

** Scam – ingliz tilida qalloblik, firib degan ma’nolarni bildiradi.*



SCAM, TOYOTA CAMRY, XOMATEN, UBER, HAFTASIGA 60 SOAT, KREDIT, IPOTEKA, SAMARQAND, TO‘YONA, NOLAYI AFG‘ON.

Xomush tortib, xayol surib qolibman, kennayim o‘zi qolib meni ovuta ketdi:

– Saidjo-o-on, hay, siz o‘ylamang. Bu erim erta-yu kech ishlaydi. O‘zi-chi, bu kishim haftaga bir cho‘miladi (xoxolab kuladi). Ko‘-chadagi kimga kerak edi u, unga ko‘chadan kim kerak? Hech kim! Farzandlarini yaxshi ko‘radi...
– Ha, kennayi, to‘g‘ri aytasiz, gumonga bormang. Yozgan odam ko‘nglingizga g‘ulg‘ula solmoqchi bo‘lgan-da...

Avval meni, so‘ng o‘g‘illarini o‘zi siqtovga olib, o‘zi ovutgach, eriga bir necha marta qo‘ng‘iroq qiladi. Hali uyga kelganida yuzma-yuz gaplashishga sabri yetmay, boyagi xabarlar daragini so‘raydi. Go‘yoki nega xiyonat qilayotganini bilishga oshiqadi. Javobdan qanoatlan-may, go‘shakni o‘zi qo‘yib qo‘yadi. So‘ngra bir soat nari-berisi yana sim qoqadi.
– Qayerdasiz? Nima qilyapsiz?
– Nima edi? – bu gal go‘shak ortidan Farhod akaning baqirig‘i butun xonaga eshitiladi.
Kennayi tishini tishiga qo‘yib irshayadi-da. chuqur uh tortib o‘zini bosib olish uchun barmoqlarini silkitib, og‘zini po‘shlaydi. Keyin yana “jabrdiyda xotin” roliga kirib: “Sizni birortasi aldab ketsa, men qannay yashayman?” deydi garchi telefondan bu ko‘rinmasa ham, ko‘zlarini suzib.
– Bu xotin esdan og‘ganmi?!
– Sizsiz nima qilamiz? Xonavayron bo‘lamiz-ku. Bu yoqda kreditlar, Samarqandda ipoteka... kim to‘laydi? – deydi qitmirona ayuhannos solib.
– Men o‘ynab yurganim yo‘q, ish-la-yap-man! Bor-ey, xotin bo‘lmay...

Yarim soat deganda jumboqning javobi topildi. Aynan shu akkaunt-dan Brayton Bichda yashaydigan bir o‘zbekistonlik ayolga yozishgan ekan. U ayol “haqiqat”ni bilish uchun 500 dollarning bahridan o‘tib, keyin laqillatib ketishganini bilib qolgan. Nima ham derdim, bu yerlarda odamlar ishonchiga kirib, turli yo‘llar bilan pul undirish ko‘p uchraydi.

Uy tinchlandi. Zalda televizor qo‘yildi. Ana endi eski odatga ko‘ra Samarqanddagi to‘y videosi kennayini sel qiladi. O‘tgan yili ukasi-ning to‘yi el og‘zida doston bo‘lganini so‘zlay ketadi. To‘y rasm-ru-sumlariga qiziqib televizorga qarayman, serhasham restoran, po‘rim kiyingan, shodon odamlar, qiy-chuv, turnaqator kortej. Xayolimga faqat bir gap keladi: nihoyatda go‘zal.

– Men Yulduz Turdiyevani shunnay yaxshi ko‘raman, Saidjo-on. To‘yona bir tomon, Yul-duzxon bir tomon bo‘ldi-da, qarang, – deb kuy avjida televizor ovozini balandlatadi. *“Xalqayi zulfi parishoningga qurbon o‘lam”...*

Xonamga kiraman. Nos hidi anqibmi, tag‘in derazani ochib, chuqur nafas olaman. Ko‘chalar tobora chiroy ochgan, mashinalar g‘uv o‘tgan, g‘uv qaytgan, odamlar o‘zaro so‘z almash-gan, itlar xurgan, qushlar sayragan, do‘konlar gavjum, meksikalik zahmatkash amigolar yuk mashinalaridan mahsulotlarni yashiklab tashi-yapti. Xullas, Bruklinda hayot qaynayapti.

So‘ng isitish amri mahol bo‘lgan baland shiftli xona haroratini o‘ylab, derazani yopaman. Tashqarining shovqini to‘xtaydi va uydan ken-nayining jo‘rovoz ohangi eshitiladi:
Man sana qurbon o‘lam,
Yor sana qurbon o‘lam...



Oliy DARAJADAGI MEHMONDO'STLIK

Mehmon besh yulduzli mehmonxonadan nima kutadi? Albatta, xalqaro standartlarga mos yuqori darajadagi xizmatdan foydalanish va milliy madaniyat ruhini his qilishni. Faoliyatida mana shunday uyg'unlikka intilayotgan InterContinental Hotels Group'ning mintaqadagi bosh menejeri Erik Seyler Uzbekistan's club jurnali bilan suhbatda bo'lib, mamlakatdagi eng peshqadam mehmonxona-lardan birida oliy darajadagi mehmondo'stlik muhitini yaratish jarayoni bilan tanishtirdi.

O‘ZBEKONA TAJRIBA

O‘zbekiston boy mehmondo‘stlik madaniyatiga ega. O‘zbekcha taomilga ko‘ra, mehmon oila a’zosidek qabul qilinadi. Ularni iliq kutib olishdan tortib, jamoamizning puxta o‘ylangan har bir xatti-harakati orqali mehmondo‘stlikni aks ettirishiga intilamiz.

Biz milliy madaniy elementlardan nozik, ammo unutilmas tarzda foydalanamiz, masalan, mahalliy uslubdagi dizayn orqali yoki nonushtada, ro‘yxatdan o‘tishda va xonalarga iltifot tarzida milliy taomlarimizni taklif qilamiz. Bu mehmonga hashamatdan bahra olish barobarida O‘zbekistonning madaniy merosini chinakamiga his qilish imkonini beradi.

UNUTILMAS XOTIRA - HASHAMAT

Besh yulduzli mehmonxonadan kutiladigan yuqori darajadagi servisning muhim omillaridan biri – xodimlar. Ularni tanlashda men e’tibor qaratadigan muhim jihatlarga o‘z vazifasiga to‘g‘ri munosabat, ishtiyoq va yuqori darajada xizmat ko‘rsatishga intilish kabi xislatlar kiradi. Biz tabiatan mehmondo‘st bo‘lgan, unutilmas xotiralar haqiqiy hashamat ekanligini tushunadigan xodimlarni izlaymiz.

Xodimlar uchun majmuaviy o‘quv dasturlariga sarmoya kiritamiz, ular xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalarini takomillashtirish bilan birga brendimizning qadriyatlari haqida tasavvur ham hosil qiladi. Ijobiy muhit, o‘sish imkoniyati va beqiyos xizmatlarni e’tirof etish orqali sara xodimlarni ushlab qolishga harakat qilamiz, bu esa faxr va jamoaga taalluqlilik hissini oshiradi.

Bizga nima motivatsiya beradi? Maqsad va e’tirof. Men ochiq muloqot va xodimlarning yutuqlarini e’tirof etishni hamda doimiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlayman. Buning uchun munosib xizmatlarga rag‘bat sifatida “Oy xodimi” mukofotidan tortib, netvorking uchun turli dasturlarni joriy qilganmiz. Qolaversa, umumiy maqsadlar, muntazam timbilding tadbirlari, har kimni maksimal harakatga undaydigan muhitni yaratish orqali kuchli jamoaviy ruhni shakllantirganmiz.

MEHMONDO‘STLIK
XIZMAT KO‘RSATISH
QULAYLIK
ESDA QOLADIGAN
TAJRIBA
MILLIYLIK VA
ZAMONAVIYLIK

SADOQAT

Har bir mehmon o‘ziga nisbatan alohida e’tibor, unutilmas taassurotlar va mahalliy madaniyat hamohangligida munosabatda bo‘lishlarini kutadi. Maqsadimiz detallarga e’tibor qaratish, innovatsiyalarni joriy etish va O‘zbekistonning boy merosini aks ettirib, kutilmalardan ham ortiq muhit yaratishdir.

Va’dalarni bajarishdagi izchillik mehmonga kutilmagan xursandchiliklar hadya qilishdek muhim ahamiyatga ega. Sifat va yuqori darajadagi xizmatga doim kamarbasta ekanimiz mijozda sodiqlik hissini uyg‘otadi, ijobiy fikrlarning og‘izdan og‘izga ko‘chishiga sabab bo‘ladi.

Mehmonda unutilmas taassurot qoldirishda eng muhimi – o‘zbekcha elementlarni xalqaro standartlar bilan to‘g‘ri uyg‘unlashtirish. Toki ular o‘zaro bellashmasin, aksincha, bir-birini to‘ldirsin. Xonalarni tozalashdan tortib taomlanishgacha barcha yo‘nalishlarda brendning yuqori standartlariga amal qilinishini kafolatlash uchun qat’iy sifat nazoratini olib boramiz. O‘z navbatida, xizmatlarimiz o‘zbek dizayni, ta’mlari va an’analarini o‘zida aks ettiradi. Masalan, xonalar mahalliy hunarmandchilik namunalari bo‘lgan hoshiyalar bilan bezatilgan, restoranlarimizda eng sara mahsulotlardan tayyorlangan an’anaviy o‘zbek taomlari tortiladi. Bu hashamat va o‘zbek milliy merosi hamohang bo‘lgan o‘ziga xos muhitni yaratadi.





MOHIRA MULLAJONOVANING BESH PORTRETI

MOHIRA MULLAJONOVA – O‘ZBEKISTONLIK YOSH MUSAVVIR. ILG‘OR KOLLEKSIONERLARNING XONADONLARI DEVORLARIDA, KO‘RGAZMALARDA UNING ASARLARINI TANIMASLIKNING ILOJI YO‘Q. SHOTA RUSTAVELI VA NUKUS KO‘CHALARIDAGI UYLARNING U YARATGAN SARIQQA YO‘G‘RILGAN DEVORLARI, OQ USTUNLARI TOSHKENTLIK TASVIRIY SAN’AT IXLOSMANDLARI ORASIDA OVOZA BO‘LGAN. UNING IJODIGA MANSUB XAYOLIY OBRAZLAR VA SYURREALISTIK MOTIVLAR KO‘RGAZMALARDA ISHONCH BILAN SAVLAT TO‘KIB TURADI.

Uzbekistan's club jurnali qiziqib ko'rdi: mo'yqalam tutib turgan bu insonning ichida kim yashirin? Musavvirning qalbiga nigoh tashlasak, kimni ko'ramiz? Qiziquvchanligimiz zo'r kelib, Mohiraning qiyofasini o'zimiz yaratishga kirishdik. Buning uchun undan bolalik bilan bog'liq beshta eng yorqin xotirasini yodga olishni so'radik. Bu shunday xotiralarki, bir marta sodir bo'ladi-yu tamom, toabad o'chmaydi. Nega aynan shu xotiralar ekanligiga esa izoh yo'q. Biz yaratgan portretlarga boqing, so'ng ko'zlaringizni yuming-da, xotirangizda bolalikdan abadiy yodgor qolgan, "mahkam o'rnashgan marvaridlar"ni esga oling.

1-PORTRET. ASALLI RENESSANS

Ijod har doim jon-u dilim bo'lgan. Baxtimga, ota-onam kanselyariya mahsulotlari va ijod uchun kerakli anjomlarni doim muhayyo qilishgan. Esingizdami, hamma rastalarda "Gamma" akvarel bo'yoqlari bo'lardi. Maktabda ham qaysi o'quvchining qo'liga qaramang, nuqul shu bo'yoq bordek edi. Unga "asalli" deb yozib qo'yilgandi. O'ylab o'yimga yeta olmasdim: nega endi "asalli?" Bola ekanman, shu savol hech tinchlik bermas, hadeb ta'qib qilardi. Va bir kuni nihoyat jur'at qildim: bo'yoqni tatib ko'rdim. Haqiqatan ham shirin ekan! Asalli. Geshtalt yopildi. Qizig'i, ularning nimadan tayyorlanishini haligacha bilmayman. Ichida chindan asal bormikin yoki yo'q?!

SIZ-CHI, BILASIZMI?

2-PORTRET. PUSHTI TOSHKENT

Bolaligimdagi eng birinchi, eng yorqin xotira. Toshkentda qish kunlari pushti rangda tovlanadigan osmon. Bolalikda ko'chada issiqmi, sovuqmi, uncha farqiga boravermaysan. Ota-onang nimani kiy desa, shuni kiyasan, vassalom. Aniq-tiniq yodimda: osmon, ufqqa bosh qo'yayotgan quyosh. Qorong'u tusha boshlagan, ammo hali kech kirgani yo'q. Osmon pushti tusda, yonayotgandek xuddi. Qor gupillayapti, ko'chada yurib boryapman. Tevarak-atrof qor. Faqat nariroqda bitta yo'l bor, tagidan issiq suv quvurlari o'tgan, u yerda odatda qor to'planmaydi. Ammo o'sha kuni shu yo'l ham qor bilan qoplangandi. Tushundimki, ko'chada qahraton sovuq. Och pushti osmon ostida ketayotgan mening ichimda esa mo'jiza hissi mavjlanadi.

SIZ-CHI, HOZIR BAXTLIMISIZ?

3-PORTRET. VHS QULAYLIK

Bu esa uchinchi eng yorqin xotiram. Oqshom singlim bilan VHS kassetalarida multfilm ko'rayotgandik. Bu biz uchun haqiqiy mo'jiza edi! Ammo menga multfilmdan ham ko'ra ko'proq kassetalarning hidi yoqardi. Uyimizda qop-qora, xunuk pleyer bo'lardi. Uning ichidan kassetani olganingda... Xuddi tupurgandek chiqarib berardi o'ziyam. Darrov hidi tutib ketardi. Issiq tasmaning hidi. Qizigan plastik. Yana bu pleyerning ovozi ham juda yoqardi. Orqaga-oldinga aylantirayotganingda chiqadigan ovoz bor-ku. Butun olamga teng ovoz. Endi hech qachon ortga qaytarib bo'lmaydigan olam.

SIZ XUDDI ESKI VHS PLEYERLARDAGI KABI HAYOTINGIZNI ORTGA QAYTARISHNI ISTARMIDINGIZ?





4-PORTRET. RUXSAT SO‘RANG!

Bunisi esa unchalik yoqimli xotira emas. Ammo unutish imkonsiz. Men 90- va 2000-yillar boshida voyaga yetganman. O‘sha vaqtda shaxsiy hududni hurmat qilish degan tushuncha yo‘q edi. Bolalar u yoqda tursin, hatto kattalarda ham. Va bu shunchalik g‘ashimni keltirardiki! Ota-onang bilan mehmonga borasan. Yoki senikiga kelishadi. Va hamma kattalar so‘ramay-netmay seni quchoqlab, o‘pa boshlaydi. O‘zim yaxshi ko‘radigan insonlarning mehrini his qilish yoqimli, albatta. Ammo ko‘pchilik bilan bunday aloqaga hushim yo‘q edi. Buni yaqqol his qilardim. Izn so‘rash odat bo‘lgan madaniyatlarni juda hurmat qilaman. “Sizni quchoqlasam maylimi?” Nazarimda, hamma bolalarni erta yoshdanoq o‘z shaxsiy hududini himoya qilishga o‘rgatish kerak.

BOLALIGINGIZDA SHUNDAY VAZIYATLARDA O‘ZINGIZNI NOQULAY HIS QILGANMISIZ?

5-PORTRET. ONAM PISHIRGAN KECHKI TAOMLAR

Onam butun umrini oilasiga baxshida qilgan. Bizga, farzandlariga. Oilada mendan ikki yosh kichik singlim ham bor. Har oqshom onam biz uchun yangi qozon osardi. Hech ovqat isitib yemasdik. Hozir esa bu cheksiz mehr ifodasi bo‘lganini, oilang uchun har kuni taom tayyorlash aslida katta hashamat ekanligini tushunaman. Bu o‘zimning qo‘limdan kelmaydi. Ovqatlarni bir necha kun oldin qilib qo‘yishga harakat qilaman. Ammo onam har qanday vaziyatda ham ovqat pishirishni kanda qilmasdi. Dasturxon atrofida butun oilamiz jamuljam bo‘lardi. Yangiliklarni muhokama qilardik. Bugun shularni eslab, har oqshom dasturxon atrofida oilaning barcha a’zolarini ko‘rish hasham ekanligini his qilaman. Bu senga tayanch hissini beradi, ichki quvvat bag‘ishlaydi. Qalbingda uchqun yilt etadi. Bilasanki, uyda seni kutishadi, yaxshi ko‘rishadi. Ayol – uydagi muhit yaratuvchisi, degan gap chin. Hozir onam, buvilarim, ammamni tahlil qilarkanman, barcha mehnatlari zoye ketmaganini tushunaman. Ulardan o‘rganganlarim ko‘p.

SIZ-CHI, ONANGIZ PISHIRGAN TAOMLAR MAZASINI UNUTMADINGIZMI?

Nikita MAKARENKO suhbatlashdi.

Toshkent markazida bo‘y cho‘zgan mo‘jaz Trilliant majmuasi hovlisi. 2024-yilning 26-sentabri. InterContinental mehmonxonasiga kiraverishdagi flagshtoklarda turli xorijiy mamlakatlarning emas, Uzbekistan’s club xalqaro nodavlat notijorat tashkilotining bayrog‘i hilpiramoqda.

Sababi, ayni shu vaqt, shu joyda “O‘zbekistonlik” xalqaro forumi bo‘lib o‘tmoqda. Navbati bo‘yicha to‘rtinchi bo‘lgan ushbu forum 2022-yilda Berlinda, 2023-yilda esa Parij hamda London shaharlarida o‘tkazilgani Uzbekistan’s club hamda u ilgari surayotgan loyihalarga befarq bo‘lmagan auditoriya uchun ma’lum.

TOSHKENT FORUM
O‘ZBEKISTONLIK 2024

“O‘ZBEKISTONLIK” XALQARO FORUMINING DASTURI BU SAFAR QUYIDAGICHA BO‘LDI:





- UZBEKISTAN’S CLUB JURNALINING 2-SONI TAQDIMOTI
- “OLTIN CHINOR” MILLIY MUKOFOTI TAQDIRLASH MAROSIMI
- UZBEKISTAN’S CLUB JURNALI VERSIYASIGA KO‘RA O‘ZBEKISTONLIK OLIMLARNING TOP 10 TALIGI TAQDIMOTI
- “QONIMDA G‘ALABA” LOYIHASI VIDEOHISOBOTI
- NETVORKING TANAFFUSI
- “O‘ZBEKISTONLIK” FILMINING 5-EPIZODI PREMYERASI

JURNAL TAQDIMOTI



Jurnal mazmunini yaratish va uni sahifalash – murakkab jarayon. Ammo uning muqovasi ustida ishlash undan-da qiyin, izchillik, e’tibor va did talab qiladigan ish.

Biz jurnalimiz muqovasida eng iste’dodli insonlarni chiqarishni niyat qilganmiz. Lekin mehnatkash va iqtidorli shaxslarga to‘la o‘zbekistonliklar hamjamiyati ichidan muqova uchun bir insonni tanlash doim yuragimizda armon qoldirardi.

Qani endi barcha millat oydinlari, barcha o‘zbekistonliklar muqovada aks etsa!

Bu niyatni qisman bo‘lsa-da amalga oshirish uchun jurnal taqdimoti bo‘layotgan zalga kiraverishda muqovamiz maketini tayyorlab qo‘ydik. Uning avvalgi sonida amalga oshirganimiz dadil eksperimentlarimiz bo‘yicha ham interfaol taqdimot o‘tkazdik.



DADIL FIKRLAR QIZIQ SHAXSLAR EKSPERIMENT SAN'AT ASARLARI







OLTIN CHINOR MILLIY MUKOFOTI

Uzbekistan's club jurnali ilk sonida, "Dolzarb" rukni ostida bu haqida maqola chiqargan va ijtimoiy mas'uliyatli kompaniyalarning TOP 7 talik reytingini ham e'lon qilgan edi. Jurnalning ikkinchi sonida esa bu tashabbus "Oltin Chinor" milliy mukofoti sifatida evrildi. Forum doirasida O'zbekistonda ilk bor korporativ ijtimoiy mas'uliyat bo'yicha taqdirlash marosimi ham bo'lib o'tdi.

Bunday reytinglarni tuzish va e'lon qilish jamiyat, atrof-muhit haqida jon kuydiradigan ishbilarmonlar hamda kompaniyalar ko'payishini rag'batlantirishiga ishonamiz. Shuning uchun bu gal, jurnalning ikkinchi soni ustida ishlar ekanmiz, Progressiv islohotlar markazi bilan birga O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan yetakchi kompaniyalarning ESG va CSR loyihalarini aniqladik.

Bundan tashqari, tahririyatimiz versiyasiga ko'ra o'zbekistonlik olimlar 20 taligini taqdim etdik. "Qonimda g'alaba" loyihasi va uning millionlab auditoriyaga ko'rsatgan ta'siri, futbol bo'yicha olimpiya terma jamoamizni qo'llab-quvvatlashni yangi, kreativ darajaga ko'targanimiz haqidagi video ham namoyish etildi.



BIZNES
C-SUITE
OLIMLAR
FAOLLAR
ATLETLAR
TAQDIMOT
SAN'AT
MEDIA
NETVORKING
PREMYERA



O'ZBEKISTONLIK 5-EPIZOD



"O'zbekistonlik" forumlarining davomiy an'ana kasb etgan, ajralmas qismi – ayni nomdagi mashhur badiiy-hujjatli film premyerasidir. O'zbekistonlik filmining 5-epizodi Harvard universiteti doktoranti, Texas universiteti professori Botir Qobilov hamda AQSH sog'liqni saqlash vazirligi kiberxavfsizlik bo'yicha mutaxassisi Farog'at Eshbekova haqida hikoya qildi.



Uzbekistan's club
MAGAZINE

ISTE'DODLAR JAMIYATINI QURIB

O‘ZBEKISTON

ISTE'DODLAR ZAMINI